74.261
A-15

Q.ABDULLAYEVA, R.NAZAROV, SH.YO'LDOSHEVA

SAVOD O'RGATISH METODIKASI



4.261
A-15

D. ABDULLAYEVA, K. NAZAROV, SH. YO'LDOSHEVA

SAVOD O'RGATISH METODIKASI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tavsiya etgan

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI
37560
A2794

TOSHKENT "O'QITUVCHI" 1996

Maxsus muharrir: *Yo'ldosh Abdullayev*

A $\frac{4306010200\text{–}96}{353(04)\text{–}96}$ axb. xati –96

© " O'qituvchi" nashriyoti, 1996.

ISBN 5–645–02816–3

Ustoz murabbiy, mehnat qahramoni Oqilxon Sharafiddinovning 100 yillik tavalludlariga bag'ishlanadi.

MUQADDIMA.

Ta'limning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'atini boyitish, nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishlariga erishmoq lozim.

Xat-savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga, so'zni bo'g'inlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi.

Xat-savod o'rgatish ishlarida bolalarni kesma harflar bilan ishlashga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bo'g'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'g'inlarni turli ko'rinishidan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib, bo'g'inlab, ongli, to'g'ri va ravon o'qishga o'rganadilar. Bu davrda bolalarni sidirg'a, ya'ni so'zlarni butunicha o'qishlariga alohida ahamiyat berish lozim. Bola avval ichda bo'g'inlab o'qisin, so'ng ovoz chiqarib so'zni butunicha aytsin.

O'qish yozuv bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og'zaki va yozma nutqini baravar rivojlanishiga yordam beradi.

O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab, bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish

foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim.

Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilar: a) o'qituvchining savollariga to'liq va aniq javob bera olish; b) rasmga qarab bog'lanishli nutq tarzida hikoya tuzish; v) o'yin va mehnatlarini gapirib berishga o'rgatib boriladi. O'quvchilar lug'atini boyitishga, yangi o'rganilgan har bir so'zning ma'nosini puxta o'zlashtirishlariga e'tibor beriladi.

Alifbo davrida bolalarga tovush-harfni o'rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri, aniq yozilishi va qo'shilishiga, daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o'quvchilar bilimining kelgusida pishiq-puxta bo'lishiga mustahkam zamin yaratadi. O'qituvchining bu sohadagi muvaffaqiyatlari uning dars o'tish usullari, darsda qo'llaydigan didaktik materiallariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi doimo izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni joriy qilishi, o'z bilimini boyitib borishi lozim.

Savod o'rgatish ishlarini to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Ta'limning didaktik jihatlariga e'tibor berib, uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish.

2. Oquvchilarning yosh va fiziologik jihatlariga e'tibor berish.

3. Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo'llash.

4. O'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor berish.

5. Alifbo va unga qo'shimcha materiallardan ijodiy foydalanish.

Savod o'rgatishning har bir bosqichi o'zining muhim pedagogik-didaktik qirralari bilan ajralib turadi. Masalan, alifbogacha bo'lgan davrda turli xil rasmlardan, narsalardan, shakllardan, ranglardan, chizmalardan, nuqtalardan, so'zlardan va boshqa vositalardan keng foydalaniladi.

Shuningdek, bolalar o'qituvchining savollariga javob berishga, rasmlarga qarab fikrlashga va o'zlari ko'rgan, eshitgan narsalar, voqealar haqida erkin so'zlashga odatlana boradilar.

Savod o'rgatishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tamoyillariga, xalq pedagogikasi an'analariga, milliy qadriyat va axloqning odob mezonlariga qat'iy rioya qilish; o'quvchilarning ruhiy holatlari va o'qish-o'rganishga qiziqish darajalarini hisobga olish; yozuvga o'rgatishda ularning tovush-harflarni aniq farqlay olishiga e'tibor beriladi.

Savod ta'limida o'zbek tili nutq tovushlarining paydo bo'lish o'rni va usulini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq tovushlarining paydo bo'lish o'rni va usuli esa nutq a'zolarining tuzilishi va harakati bilan bog'liqdir. Nutq tovushlarini hosil qilishda quyidagi nutq a'zolari ishtirok etadi:

a) o'pka joylashgan ko'krak qafasi; b) bo'g'iz; d) burun bo'shlig'i; e) og'iz bo'shlig'i va til; f) milk va tish; g) lablar.

Savod ta'limidagi asosiy maqsad va vazifa bolalarda yozish va o'qishni o'rganishga ishonch hosil qilish, o'z bilganlarini hech tortinmay, erkin, burro-burro, mantiqli va ifodali gapirishga o'rgatishdan iborat.

Savod ta'limida bir turdagi mashg'ulotlar uzoq davom etsa, o'quvchilar tez charchaydi. Shuni hisobga olib, mashg'ulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dastlabki mashg'ulotlar ta'sirchanlik va mo'jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo'lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o'qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod ta'limining adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda olib borilishi, qisqa va lo'nda, ta'sirchan va tabiiy, muloyim va ravon bo'lishi bolalar jamoasini tashkil etishda katta ahamiyatga egadir.

Savod ta'limida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tartiblash eng muhim omillardan sanaladi.

Nutq tovushlari tasnifi. Nutq tovushlari ikki turli bo'ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

Ovozdangina iborat bo'lib, og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan tovushlar unli deb yuritiladi. O'zbek adabiy tilidagi unli tovushlar quyidagi harfiy belgilar bilan ifodalanadi: i, e, a, o, o', u.

Og'izda to'siqqa uchrab, shovqindan hosil bo'ladigan yoki qisman shovqin ishtirok etadigan tovushlar undosh tovushlar sanaladi. Bular quyidagi harfiy belgilar bilan ifodalanadi: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.

Tutuq belgisi harf emas, imlo belgisi tarzida o'rgatiladi. Savod o'rgatish uch bosqichga bo'linadi: a) tayyorgarlik davri (alifbogacha bo'lgan davr); b) alifbe davri; g) alifbedan keyingi davr (o'qish davri).

XAT-SAVOD O'RGATISH DAVRI.

Tayyorgarlik davri asosan bolalar jamoasini tashkil etish, ularda do'stlik va o'rtoqlikni qadrlash, sinf va maktabda o'zini yaxshi tutish, odob-axloq qoidalariga amal qilish, eng muhimi, bolalarda dastlabki kunlardanoq o'qish, o'rganishga havas uyg'otishdir.

Tayyorgarlik davrida bolalar nutqini o'stirishga, tevarak-atrofdagi narsalar haqida gapirib berishga, rasmlarni tomosha qilib, mazmunini so'zlab berishga o'rgatiladi. Xat-savod o'rgatishning asosini alifbo davri tashkil etadi.

ALIFBO DAVRI.

Alifbo davrining asosiy vazifasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, tovush talaffuzini yaxshilash, o'zbek tili alifbosidagi barcha harfiy, imloviy belgilarni o'rgatishdan iboratdir.

1- sinf o'quvchilariga savod o'rgatishda tahlil-tarkib asosidagi tovush usulida ish olib boriladi.

Hozirgi o'zbek alifbosida bir harf bilan (a, b, d kabi) va ikki harf birikmasi bilan (sh, ch, ng) ifodalanadigan tovushlar bor.

Bu davrda tovush-harflarni o'rgatishda alifbo tartibi emas, balki tovushlar talaffuzining oson-qiyinligi hamda bo'g'in va so'zlarning soddaligi, harf shaklining qulayligi hisobga olinadi.

Bu bosqichda o'quvchilar gapni so'zlarga, so'zlarni esa bo'g'inlarga bo'lib o'qishni o'rganadilar.

Alifbo davrining birinchi bosqichida bolalar ochiq bo'g'inlardan tuzilgan ikki, uch bo'g'inli so'zlarni o'qishni bilib oladilar.

Tahlil-tarkib ishlari bolalar faolligini oshirib, tafakkur qilish uquvlarini o'stiradi. "Alifbe" kitobida berilgan rasmlar faqat tomosha qilish, so'zlab berishgagina mo'ljallanmay, balki bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalashni ham nazarda tutadi. Rasmlarga qarab suhbat o'tkazish orqali bolalarning nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar hisobiga boyitish ishlari amalga oshiriladi.

Bolalarga so'zlarning ma'nosini o'rgatishda bir-biriga ma'nosi yaqin so'zlarni topish va ularni nutqda o'rinli ishlatish yuzasidan ish olib boriladi. Masalan, *bobo - buva, in - uya, muallim - o'qituvchi - ustoz, bino - imorat, ish - yumush* kabi.

Bolalarni to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish jarayonida ifodalilikka ham ahamiyat berish lozim. Chunonchi, matndagi voqea-hodisalarini his etib, uning ohangini o'zgartirib o'qish va hokazo.

Alifbo davri uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich.

Alifbo davrining birinchi bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) gap, so'z, bo'g'in, tovush haqida tushuncha hosil qilish;

2) unli, undosh tovushlarning talaffuzi yuzasidan mashq qilib, ularni bir-biridan farqlash;

3) kesma harflar bilan ishlash; 1 va 2 bo'g'inli so'zlarni ravon o'qiy olish;

4) o'qilganlarni gapirib berish;

5) so'zlarni to'g'ri yozish, chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilish;

6) gapni bosh harf bilan boshlab, oxiriga tegishli tinish belgilarini qo'yish;

7) bolalarda eshitib yozish malakalarini shakllantirish, diktant yozishni mashq qildirish.

— Birinchi bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar harflarni to'g'ri va chiroyli yozishga, yozuv gigiyenasiga to'liq rioya qilishga o'rgatiladi.

O'quvchilar harfning yozma shakli bilan tanishtirilgandan so'ng, shu harfning bosma shakli bilan taqqoslanadi.

Bu bosqichda "Yozuv daftari"ning chiziqlarini to'g'ri chamalab yozish, yangi harf unsuri va shaklini ko'rsatilgan namunaga qarab yozish mashq qildiriladi. Yozuvga o'rgatish ishlari husnixat bilan birgalikda olib boriladi. Har bir harf o'rgatilmasdan oldin tovush va bo'g'in tahlil qilinib, so'ng yozuv mashqlari otkazilsa, o'quvchilar tomonidan harfni tushurib yozishning oldi olinadi.

Gapni bosh harflar bilan yozish tushuntiriladi. Gap oxiriga tegishli tinish belgi qo'yish mashq qildiriladi. Shuningdek, ko'ruv, eshituv, tekshiruv diktantlari o'tkaziladi. Tekshiruv diktant uchun 1 - 2 bo'g'inli so'zlar tanlanadi.

Ikkinchi bosqich.

Ikkinchi bosqichda unli tovushlar bo'g'in hosil qilishi bilan tanishtiriladi.

Bu bosqichda bolalar ikki undosh o'rtasida unli kelgan yopiq bo'g'inli (qish, qush, qum, mo'l); 4-5 harfli ochiq va yopiq bo'g'inlar (dalam, baliq, kiyik); ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlar (pilla, do'ppi, avval, koptok, yong'oq); 6 harfli yopiq bo'g'inli so'zlar (qishloq, gulzor, Gulnoz); uch bo'g'indan iborat so'zlar (Mavluda, Xolmirza, Gulnora) bilan tanishtiriladi.

Matnda uchragan qiyin, ko'p bo'g'inli so'zlarni avval tahlil qilib, keyin o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmlar ustida suhbat o'tkazilganda, yangi tanishtiriladigan tovush-harf ishtirokida tayanch so'zli gap ajratib olinadi. Har bir gap so'zlarga, tayanch so'z bo'g'inga, bo'g'in esa tovushlarga bo'linadi. Shu yangi o'rganilayotgan tovushga mustaqil ravishda unli tovush qo'shib, bo'g'in hosil qildiriladi.

O'quvchilar tanishtirilgan yangi harfni kesma harflardan topib, bo'g'in, keyin esa so'z tuzish va ularni ravon o'qishlari lozim.

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, bir bo'g'in yoki harfni al-

mashtirish bilan yangi so'zlar yasash bolalarni o'qishga o'rgatish ishini yengillashtiradi.

Birinchi bosqichda gap, so'z, bo'g'in (ochiq, yopiq), tovush, harf, unli, undosh harflar haqida hosil qilingan tushunchalar ikkinchi bosqichda mustahkamlanadi.

"Ona tili" ga ilova qilingan didaktik rasmlar bilan ishlash bu bosqichda ham davom ettiriladi. Bolalarning mantiqiy fikrlashiga doir mashqlar tez-tez o'tkaziladi.

Darsda bolalarning o'zlashtirish uquvlariga qarab, kitob sahifalaridagi matnlarni tanlab o'qitilishiga alohida ahamiyat beriladi. Masalan, "So'z top" o'yini matni o'qitilganda, faol o'quvchilarga mustaqil o'qishni, o'rta o'zlashtirayotgan o'quvchilarga esa 4-5 qatorini, bo'sh o'zlashtirayotganlar bilan oqituvchi yakkama-yakka ishlab, faqat *Shavkat, O'ktam, Parpi, so'z, topdi* kabi so'zlarni tanlab, bo'g'inlarga bo'ldirib oqitishi bolalarning tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bolalarda ongli o'qish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasidan yetakchi savollar berib borish yaxshi natija beradi.

1) rasmlar yuzasidan tushunganlarini gapirib berish. Gapda so'zlar tartibiga rioya qilish;

2) gapning mazmuniga qarab tegishli tinish belgisini qo'yish;

3) gapni tahlil qilishda faol ishtirok etish;

4) unli, undoshlarni farqlab, ochiq va yopiq bo'g'inlar tuzish;

5) tovushlarni aniq talaffuz etishni bilish. Ketma-ket kelgan undosh tovushli so'zlarni xatosiz o'qish va yozish;

6) o'qiganlari asosida hikoyacha tuzish;

7) ertaklar mazmunini so'zlab berish;

8) maqol, tez aytish, topishmoqlarni yoddan ayta olish. Topishmoqlarning javobini mustaqil ravishda topish;

9) kuz, qish, bahor, yoz, maktab, Navro'z, Mustaqillik bayramlari haqidagi she'rlarni yoddan bilish;

10) chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilish;

11) so'zlarni bo'g'inlab, ichda takrorlab, to'g'ri yozish. Daftar sahifalariga yozilganlarni o'qiy olish;

12) ikki va uch bo'g'inli so'zlarni tovush tahlilidan so'ng eshitib yozish;

13) gapni bosh harf bilan boshlash; gapdan so'ng tinish belgisini to'g'ri qo'yish.

Ikkinchi bosqichda olib boriladigan ishlar turi murakkablashib boradi. Masalan, o'rganilishi lozim bo'lgan yangi tovush-harf tanishtirilgandan so'ng, "Alifbe" ning shu kun o'qitiladigan sahifasidagi so'zlarni avval o'qituvchi o'qib beradi, so'ng o'quvchilarning o'zlariga kesma harf va kesma bo'g'inlardan tuzdirib o'qitiladi. Darslik matnidagi gaplarning ma'nosini savollar yordami bilan tushuntirib o'qitiladi. Matn sidirg'asiga o'qitiladi va o'qilgan matn mazmuni so'zlatiladi. Faol o'quvchilarga tarqatma didaktik materiallar—kartochkalar tarqatiladi. Ayrim o'quvchilarga harf yoki bo'g'ini tushirib qoldirilgan so'zlarni to'liq o'qitish vazifasi topshiriladi. Boshqa guruhdagi bolalarga hali o'tilmagan harflar o'rnida ishtirok etgan rasmlarning nomini to'g'ri talaffuz etib o'qish buyuriladi.

Shuningdek, ikkinchi bosqichda oquvchilarga quyidagi ish turlari topshiriladi:

1. Darslikdagi matnlar ostida berilgan bir unli va bir undosh harfli bo'g'inlarga yangi bo'g'in qo'shib, so'z tuzib o'qitish.

2. Yozma shakldagi matnlarni o'qitish.

3. Matn ostidagi savollarni o'qitish va mustaqil ravishda javob topish.

4. Suhbat tarzidagi matnlarni rollarga bo'lib o'qitish.

5. Xalq og'zaki ijodi namunalari: maqol, topishmoq va tez aytishlardan o'rinli foydalanish.

6. O'qilganlarni kuzatishlar orqali mustahkamlash.

7. Darak, so'roq, buyruq gaplarni gap oxiridagi tinish belgisiga qarab bir-biridan farqlab o'qitish.

Birinchi bosqichda boshlangan ayrim ishlar ikkinchi bosqichda ham davom ettiriladi. Masalan, "Kesma alifbo" dan o'quvchining o'zi tuzgan so'zlarni o'qish eng oson o'qishdir, chunki o'quvchilar bu so'zlarni tuzish davomida harflar bir-biriga qo'shilib bo'g'in va so'z hosil qilishini amaliy bilib oladilar.

O'quvchilar bunday mashqlardan so'ng bo'g'inlarga ajratib

berilgan so'zlarni ham oson o'qiy oladilar. Notanish so'zlar uchrasa, bu so'zlarning ma'nosi tushuntiriladi.

Matnni o'qitishda bolalarni verguldan keyin bir oz to'xtab olishga odatlantiriladi.

Ovozli o'qish bilan ichda o'qish mashqlarini tez-tez almashtirib turish lozim. 7 yoshli bolalarni mustaqil ishlashga o'rgatishning alohida ahamiyati bor. Bu davrda bolalarga kartochkalar bilan ishlash ham o'rgatiladi. O'qituvchi o'rganilgan yangi harf, bo'g'in va so'zlarni kartochkalarga har xil rangda yozib o'qitadi. Bu esa bolalarning matnlarni yodlamasdan, ongli o'qishini ta'minlaydi.

O'quvchilar matndagi so'zlarni topib, bir-biriga bog'lab o'qishni o'rganib olganlaridan keyin o'tilgan matnlarni ongli va tez o'qish malakalarini hosil etish ustida ish olib boriladi.

O'qituvchi ba'zan sinf xattaxtasiga bo'g'in, so'z va gaplarni avvaldan dona-dona qilib yozib qo'ysa, guruhga bo'linib ovoz chiqarib o'qish qulay bo'ladi. Doimo kitobdan o'qitaverish bolani tez toliqtirishini e'tiborga olib, ish turini navbatlashtirish kerak. Yoki matn orasiga ko'proq rasm joylashtiriladi, shunda bola bir rasm nomini aytib, undan keyin so'zlarni o'qib, matn tugaganini ham sezmay qoladi. Alifbe kitobiga qo'shimcha ravishda didaktik o'quv qo'llanmalari tayyorlandi. Ular o'quvchilarning o'qish tezligini oshiradi, lug'atini yangi so'zlar bilan boyishini, nutqining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu o'rinda faqat rasmlardangina emas, narsalardan ham foydalanilsa, dars yanada jonli o'tadi. Masalan, *Lola olma oldi* gapidagi *olma* so'zi o'rniga olmaning ozi ko'rsatilsa, yaxshi bo'ladi.

Bolalar e'tibori "Alifbe"da berilgan to'rtburchaklar ichidagi bir undosh va bir unli harfdan tashkil topgan bo'g'inlarga jalb etiladi va ularni bir marta o'qib chiqish topshiriladi. So'ng shu bo'g'inlardan to'liq so'zlar yasash uchun yangi bo'q'inlar o'ylab topiladi. Buni faqat og'zaki emas, balki o'tilgan harflar yordamida kesma harflar bilan yozdirish ham mumkin. Bir bo'g'indan bir necha so'z yasash mumkinligi misollar bilan tushuntiriladi. Masalan, *na* bo'g'inidan: *a-na, o-na, ma-na, ni-na* so'zlarini og'zaki aytadilar. Shu so'zlarni matnda ishtirok ettirib so'zlab beradilar.

Suhbat tarzidagi matnlarni o'quvchilar bir-birlariga savol berib o'qisalar, qiziqarli bo'ladi. Bunda bolalar sidirg'a matn mazmunidan ko'ra suhbatli matn mazmunini tez o'zlashtiradilar. O'qituvchi har bir shaxs nutqi oldidan qo'yiladigan chiziqni bolalarga tushuntiradi. Shuningdek, o'qiganda gap oxiriga qo'yilgan belgilarga rioya qilishni ta'kidlaydi. Har bir o'quvchi o'zi o'qib beradigan jumlaning boshlanish va tugash o'rnini yaxshi bilib olgach, matnni o'qish boshlanadi. Keyinchalik bolalarning o'zlari qaysi matnni qanday o'qish malakasini yaxshi o'zlashtirib, rollarni o'zlari belqilaydigan bo'ladilar. Darslikda berilgan maqol, topishmoq, tez aytishlardan o'rinli foydalanish va ijodiy ravishda maqol, topishmoq, tez aytishlarni toptirish mashqlari olib borilishi lozim. Ulardan bolalar charchagan vaqtlarida o'rinli foydalanish mumkin. Bu davrda o'qiganlarni amalda kuzatish, kuzatilganlarni o'qilgan material bilan taqqoslash, har bir gap va matn mazmunini tabiat manzarasi, kishilar mehnati haqidagi tasavvur bilan bog'lab bayon etish dasturning asosiy talabidir.

Ikkinchi bosqichdagi yozuv darslarida bolalarning o'qish malakalarini rivojlantirish ishlari davom ettirilib, matnlarni tahlil qilishga o'rgatiladi, xatning to'g'ri va chiroyli bo'lishiga alohida ahamiyat beriladi.

Birinchi bosqichda talab etilgan yozuv qoidalari ikkinchi bosqichda mustahkamlanadi.

Yozma ish turlari asta-sekin murakkablashib boradi: eshituv-ko'ruv diktanti o'tkaziladi. Mantiqiy fikrlashga undovchi vazifalar bajariladi:

1) bo'g'inlardan so'z tuzish va yozish;

2) harfi tushirilib berilgan so'zlarni to'ldirib yozish;

3) yoziladigan so'zlarni avval kesma harflar bilan, so'ng yozma harflar bilan yozish;

4) rasmlarga qarab gap tuzish va kesma harflar yordamida yozish, gap oxiriga tegishli tinish belgisi qo'yish;

5) eshitib yozuv mashqlarini bajarish;

6) chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilish.

Uchinchi bosqich.

Alifbo davrining uchinchi bosqichida ayrim kichik va

bosh harflar, chiziqcha, tutuq va ko'chish belgilari o'rgatiladi. Shuningdek, bu bosqichda J harfi *Jo'ra, jo'ja, jiyda* va *jurnal, gijda non* sozlarida ikki xil tovushni bildirishi uqtiriladi.

O'quvchilarni chiziqcha (-) bilan tanishtirganda, u *aka-uka, katta-kichik* kabi sozlar orasiga qo'yilishi ta'kidlanadi.

Tutuq belgisini tushuntirish uchun *a'lo, jur'at* kabi yoziladigan ayrim zarur so'zlarning jadvali tuziladi va yodlatiladi.

Shuningdek, p-f, x-h undoshlarini o'rgatishda ularning aytilishiga alohida ahamiyat beriladi.

Uchinchi bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

1) matndagi yangi bo'g'inlarni boshqalaridan farqlash va tahlil qilish;

2) aytilishi va yozilishida farq qilinadigan harflarni ajratish va o'qilishi bilan yozilishiga ahamiyat berish;

3) kesma harflar ishtirokida gaplar tuzish, so'z va bo'g'in jadvallari tuzish;

4) matndagi murakkab jumlalarni bo'g'inga bo'lib, so'ng so'zma-so'z o'qish;

5) mantiqiy fikrlashga doir mashqlar o'tkazish; bolaning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish;

6) yozuv mashqlarini takomillashtirish;

7) bolalarning bilim va malakalarini o'stirish, yozuv mashqlarini tez-tez o'tkazish;

8) savodli yozish uquvlarini o'stirish uchun *handalak, haykal, Jo'ra, jurnal, va'da, A'zam, palto, jur'at, sirk, konsert* so'zlarini yozdirish;

9) so'z, gap kartochkalari bilan ishlash, so'zi tushirib yozilgan gaplarni mustaqil ravishda to'ldirish;

10) qisqa gaplarni eshitib yozish.

Bo'g'indan tovushni ajratish.

Bolani dastlabki o'qish jarayoniga tayyorlash uchun unga nutqning asosiy tovushlari alifbogacha tayyorgarlik davridayoq tanitiladi. Tovush nimaligini 7 yoshli bolaga tushuntirish bo'g'in, so'zlarni tushuntirishga nisbatan bir oz qiyinroq bo'ladi.

O'quvchilarni tovush bilan tanishtirish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rish, alohida ish usullari tanlash zarur. Yaxshisi, so'zdan tovushni ajratib olish kerak.

Bo'g'indan tovushni ajratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

a) unli tovushlar bilan tanishtirish uchun ikki bo'g'inli so'zning birinchi bo'g'inini tashkil etgan unli tovush ajratib olinadi: *o-na, i-ni, o-tin* kabi;

b) undosh tovushlarni ajratib olishda so'z (bo'g'in) oxirida cho'zib talaffuz qilish usulidan foydalanish zarur. Shuning uchun "Alifbe" ning 18-20-betlarigacha shu tariqa cho'zib talaffuz etish mumkin bo'lgan undosh tovushlar berilgan. Masalan, L undoshini ajratib olishda *ol* so'zi oxiridagi l cho'zib (olll tarzida) talaffuz etiladi.

c) portlovchi undoshlarning o'zini sof holda unli aralashtirmasdan aytish qiyin, shuning uchun bolalar T bilan D ni, P bilan B ni almashtirib talaffuz etadilar. Portlovchi undoshlarni farq qilishda ularni cho'zib, surunkasiga talaffuz etish mumkin bo'lgan undosh tovushlar bilan tanishtirish usulidan foydalanish mumkin. Masalan, *osh, ish, pish, lab, bob, ot.*

Har bir tovushni bo'g'indan ajratib olgandan keyin bolalarning diqqatini shu tovushning xususiyatlariga tortish, uning qanday hosil qilinishini amalda ko'rsatish va bolalarga ayttirish lozim. Aks holda o'quvchilar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladigan bo'lib qoladilar.

Ba'zi bolalar ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar, buni hatto o'zlari ham sezadilar. Bunday bolalarga ana shu tovushlar ko'p uchraydigan so'zlarni qayta-qayta mashq qildirish kerak. Masalan, R tovushini yaxshi talaffuz qila olmaydigan bolalarga *rom, randa, o'rtoq, o'roq, qirra, arra* kabi so'zlarni sinfda ham, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham ko'proq ayttirish lozim.

O'tilgan harflar ishtirokida bir-ikki bo'g'inli so'z kartochkalari tayyorlanib, mustaqil to'ldirish uchun o'quvchilarga tarqatiladi. Masalan, *bor* so'zi *bo...*, *arra* so'zi *a...a* kabi.

O'qituvchi tahlil-tarkib asosida so'z (bo'g'in) dan ajratib olingan tovushni qanday talaffuz qilish kerakligini, ya'ni og'iz harakatini o'quvchilarga ko'rsatadi, o'quvchilarning

o'zlariga ham ayttiradi. Oynaga qarab talaffuz ettirish mashq qilinadi.

Tovush talaffuzida o'quvchilar diqqati tovushlarning qayerdan chiqishiga jalb qilinadi. Masalan, *O, A* tovushlarini aytishda og'iz katta ochiladi; *U* tovushini aytishda lablar oldinga cho'ziladi, *I* tovushini aytishda lablar sal juftlashadi, B, P tovushlarini aytishda lablar bir-biriga tegib, tovush "portlab" uziladi, *F* tovushi talaffuz etilganda pastki lab yuqori tishga yaqinlashadi, *X* tovushi tomoq qirib aytiladi, *H* tomoq qirilmay, tanglay bo'shlig'idan chiqarib aytiladi.

"Rasmli alifbo","Harflar chamani", "Kesma alifbo" da harf tanitish uchun unli harflar qizil rangda, undoshlar esa havo rangda berilgan. Yaqqol ko'rinib turgan bu harflar bolalarga bu so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, qiynalmay o'qishga imkon beradi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning ijodiy ravishda bo'g'in topib, so'z hosil qilishlari uchun bir unli, bir undosh tovushli *na, no, la, ni* kabi bo'g'inlar berilgan.

Bir necha unli o'tilgandan so'ng o'qituvchi yordami bilan sinfda jadval tuzilib, unlilarni bir tomonga, undoshlarni ikkinchi tomonga yozib borish tavsiya qilinadi.

Yangi tovush yaxshi tanitilgandan so'ng o'quvchilarga shu tovush qatnashgan so'z toptiriladi. O'quvchi yangi tovush qatnashgan so'zni topgandan keyin o'qituvchi undan yangi tovush so'zning qayerida va qaysi bo'g'inida kelganini so'raydi. Shuning uchun ham darslikda o'rgatiladigan yangi tovush so'zning turli yerida berilgan. O'qituvchining o'zi ham yangi tovush qatnashgan va qatnashmagan bir necha so'zni aytib, bu so'zlarning qaysi birida yangi tovush eshitilayotganini o'quvchilardan so'rashi kerak. Bunday mashqlarni o'yin-mashg'ulot sifatida uyushtirish bolalar uchun yanada zavqli tuyuladi.

BO'G'INLARNI O'QISHGA O'RGATISH.

O'qishda ochiq va yopiq bo'g'inni o'qishga nisbatan teskari bo'g'inni o'qish osondir. Chunki teskari bo'g'inda birinchi unli tovush, so'ng undosh tovush bo'ladi. Demak, bola avval unli tovushni, so'ng undosh tovushni talaffuz qiladi. Undosh tovush talaffuziga nisbatan unli tovush talaf-

fuzi ancha oson. Avval unli tovushni talaffuz qilib, keyin undosh tovushni talaffuz qilishga o'tish bolalar uchun ancha murakkab bo'lib, ularni bir oz qiynaydi.

Teskari bo'g'inlar yuzasidan bir oz talaffuz mashqi o'tkazilgandan so'ng ochiq bo'g'inlar yuzasidan talaffuz mashqi qilinadi. Bu talaffuz mashqi uchun tanlangan ochiq bo'g'in boshida cho'ziq undoshlarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir. So'ng turli xarakterdagi bo'g'inlar, hatto yopiq bo'g'inlarni tanishtirish mumkin. Bunday bo'g'inlarni tanlash, ularni mashq qilish jarayonida tahlil va tarkib metodi muhim ish turi hisoblanadi.

O'qish jarayonida so'zlarni harflab o'qish har jihatdan: gap va matn mazmunini tushunishda ham, yozuvning tez va imlo jihatdan to'g'ri bo'lishida ham xavfli usuldir. Shuning uchun bolalarning harflab o'qishlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

O'quvchilar 5-6 harfni bilib olganlaridan keyin "Kesma alifbo" dan foydalanib, bo'g'inlardan so'z tuzish mashq qilinadi.

O'quvchilarga bo'g'inlarni toptirishda bo'g'in jadvalidan foydalanish mumkin. Bu jadvalning har qaysi ustunidagi bo'g'in bir xil harf bilan boshlanadi:

par	so	sho
pe	sa	sha
po	soz	shi
pay	sal	she

O'qituvchi jadvaldagi bo'g'inlardan boshlanadigan biror so'zni aytadi. Masalan, *so-chiq, sa-vat, shi-rin.*

Bir o'quvchi so'zni bo'g'inlarga ajratib, shu so'zning birinchi bo'g'inini bir xil harf bilan boshlangan boshqa bo'g'inlar orasidan ongli suratda topib, qanday farqlanishni, har qaysi ustun harf bog'lanishini o'quvchilarga oldindan tushuntiradi. O'quvchilarga o'rganilgan harflardan tuzilgan so'zlarni topishda ham shu jadvaldan foydalanish mumkin.

"Kesma alifbo" bilan olib boriladigan amaliy ishlar.

O'quvchilar muayyan tovush haqida yaxshi tasavvur hosil qilganlaridan keyin, tahlil qilingan so'z yoki bo'g'in o'qituv-

chi rahbarligida kesma harflardan harf terish kartoniga terilib o'qitiladi, keyin bu so'z harf terish kartonidan olib qo'yiladi. O'qituvchi so'zni og'zaki aytadi va oquvchilarga ayttiradi. Bolalar so'zni ichda bo'g'inlab aytib, uni harf kassasi asosida tuzadilar, bo'g'inlab o'qiydilar.

O'quvchilarga bo'q'inlab so'z tuzdirishda, avvalo, birinchi marta uchragan yangi bo'g'in tushuntiriladi va uni qayta-qayta tuzdirib mustahkamlanadi. So'ng bir harf yoki bir bo'g'inni almashtirish bilan boshqa ma'no beradigan ikkinchi, uchinchi so'zlarni tuzdirish mumkin, masalan, birinchi sinf o'quvchilarini to'g'ri o'qishga o'rgatishda kesma harflarning roli qanchalik katta bo'lsa, bo'g'in jadvalining ahamiyati ham undan qolishmaydi. Sinf bo'g'in jadvali har bir harf o'tilgandan so'ng, o'quvchilar ishtirokida tuziladi. Yuqoridagi usul bilan o'rganilgan yangi harf kesma harflar vositasida bolalarga o'rgatilgandan so'ng, darsda o'quvchilar tuzib mashq qilgan ochiq bo'g'inlar sinf bo'g'in kartoniga yopishtiriladi va bu tuzilgan bo'g'inlar sinfda jo'r bo'lib o'qib ko'riladi.

U unlisi o'rganilgandan so'ng taxminan quyidagicha bo'g'in jadvali tuzish mumkin:

bu, shu, tu, nu, lu, mu, ku, qu, su, du
uv, ush, ut, un, ul, um, uq, uk, us, ud

Bo'g'in jadvali namunasi darslikda berilgan. Mashg'ulotda bu bo'g'in jadvalini o'qib borishni topshirish maqsadga muvofiqdir.

Bo'g'in jadvali bilan quyidagicha ishlanadi:

a) o'qituvchi ko'rsatgan bo'g'inlarni o'quvchilar o'qiydilar;

b) o'qituvchi bo'g'inni aytadi, xattaxtaga chiqqan o'quvchi jadvaldan topib ko'rsatadi;

d) o'qituvchi jadvaldan ikkita bo'g'nni ko'rsatadi, o'quvchi ularni ko'rib bir so'z qilib o'qiydi;

e) o'qituvchi so'z kartochkasidan ikki bo'g'inli so'zni ko'rsatadi, o'quvchi jadvaldan bu bo'g'inlarni topadi;

f) o'qituvchi bir bo'g'inni ko'rsatadi, o'quvchi o'qituvchi ko'rsatgan bo'g'in bilan so'z yasash mumkin bo'lgan boshqa bo'g'inni topadi;

j) so'z yasash mumkin bo'lgan ikki [illegible] ko'rsatish o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi.

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI
KUTUBXONASI
№
37560

Bu mashqlarning hammasi bo'g'inlar bo'yicha tahlil va tarkib yo'li bilan bajariladiki, bu usullar bolalarda so'zlarni aniq, to'g'ri va tezroq o'qish malakasini hosil qilishga ko'mak beradi.

So'zni bo'g'inga bo'lishda quyidagicha amaliy mashqlardan foydalanish mumkin:

a) ikki bo'g'inli so'z bo'g'inlarga bo'linayotganda, qo'llar tirsakdan yuqoriga qaratilgan holda parta ustiga qo'yiladi;

b) so'zning bir bo'g'ini aytilganda o'ng qo'l yonlamasiga parta ustiga tushadi, ikkinchi bo'g'in aytilganda, chap qo'l o'ng qo'l ustiga tushadi. Uch, undan ortiq bo'g'inli so'zlarni bo'g'inga bo'lishda chapak chalish, barmoqlarni bukib sanash ham mumkin;

d) kaftni iyakka tirab turib, so'zning necha bo'g'indan iborat ekanligini bilish bolalar uchun osondir;

e) birinchi bo'g'inni o'qituvchi aytib, ikkinchi bo'g'inni bolalarga ayttirish, masalan, o'qituvchi *o* bo'g'inini aytsa, bolalar *-na, -ta, -lim, -la* bo'g'inlarini aytadilar va *ona, ota, olim, ola* so'zlari tuziladi. Dars jarayonida o'yin-mashg'ulot yoxud dam olish daqiqasi o'rnida o'quvchilar doira shaklida turadilar va to'pni bir-birlariga otadilar. To'pni otayotgan bola so'zning bo'g'inini aytsa, ilayotgan bola ikkinchi bo'g'inini aytishi, uchinchi bola shu so'zni to'liq aytishi kerak.

So'zlarni o'qishga o'rgatish.

Tovush va harflarni o'rgatish bilan bir vaqtda so'zlarni o'qishga o'rgatish ishi ham olib boriladi. Bu ish alifbo davrining dastlabki mashg'ulotlaridanoq boshlanadi.

Harfni tanish o'qishni o'rganishning dastlabki ko'rinishidir. Ammo so'z tarkibidagi tovush bilan yakka tovushning talaffuzida keskin farq bor. Bu hol bolalarning o'qishida ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi. Bolalarning to'g'ri va ongli o'qishini ta'minlash uchun usul tanlanadi.

Bolalarga biror tovush va harf o'rgatilgandan song, ular harfni kassadan olib, bo'g'inlarga bo'lingan so'z tuzadilar. Masalan, *so-at* so'zi tuzilgan bo'lsin. O'qituvchi bolalarga savollar beradi: Bu so'z necha bo'g'indan tuzilgan? Birinchi bo'g'ini qaysi? *(so)*. Ikkinchi bo'g'ini-chi? (at) Birinchi

bo'g'inning birinchi harfi qaysi? *(s)* Ikkinchi harfi-chi? *(o)* So'zning ikkinchi bo'g'ini ham shu usulda tahlil qilingach, so'z bo'g'inlarga bo'linib, so'ng o'qiladi, o'qishda qiynaluvchi o'quvchilarga alohida o'qitiladi.

Ishning boshida yetarli o'qish ko'nikmasi bo'lmagani uchun ish sekin bajariladi. Yana shunday qilish mumkin: o'qituvchi xattaxtaga *par-ta* so'zini bosma harflar bilan yozib qo'yadi yoki bir necha so'zni kesma harflardan tuzadi. O'qituvchining taklifi bilan bir o'quvchi birinchi *par* bo'g'inini o'qiydi, ikkinchi o'quvchi - *ta* bo'g'inini o'qiydi, uchinchi o'quvchi esa *parta* so'zini o'qiydi. So'ng sinfdagi barcha o'quvchilar *parta* so'zini jo'r bo'lib takrorlaydilar. O'qish malakasini sinab ko'rish uchun ayrim bolalarga bu so'z individual o'qitilib ko'riladi. Bu usul o'qish tezligini oshirish, o'quvchilarning har qanday bo'g'in va so'zlarni avval ichda bir marta o'qib olishi, so'ng uni ovoz chiqarib o'qishlariga imkon beradi. Bolalarning bunga odatlanib qolmasliklari uchun, ularda o'qish ko'nikmasi bir oz sistemaga tushib qolgandan so'ng, takror va sekin o'qishdan asta-sekin to'g'ri va tez o'qishga o'rgatib boriladi.

Shuningdek, *So-bit, So-diq, Sa-li-ma* kabi yangi bo'g'indan keyingi bo'g'inlarni o'zgartirish, so'z tarkibidagi harflarni asta-sekin oshirish, kamaytirish yo'li bilan turli so'zlar hosil qilish, ularni o'qish muhim ahamiyatga ega. Bu ishlarning hammasi sinf harf kassasi vositasida tashkil qilinadi.

So'z tarkibidagi ayrim harflarni boshqa harflar bilan almashtirib o'qishda o'qituvchi ikki xil usuldan foydalanadi: *bosh* so'zi xattaxtada kesma harflar yordamida tuziladi, so'z tarkibidagi *o* harfini *e* harfi bilan almashtirishni bolalardan talab qiladi, bolalar ishni bajargach, endi qanday so'z hosil bo'ldi, o'qing, deb bolalarga topshiriq beradi. O'quvchilar so'zni o'qib, *bosh* so'zining *besh* so'zidan farqini anglaydilar yoki o'qituvchi xattaxtada *bor* so'zini tuzib, o'quvchilardan so'raydi: Qaysi harf qaysi harf bilan almashtirilsa, *bor* so'zi *ber* so'ziga aylanadi? Bu savolga javob topish ancha murakkab. Bu ishda bolalar qiynalsalar, o'qituvchi ularga yo'l-yo'lakay yordam beradi.

So'z tarkibidagi ayrim harflarning boshqasi bilan almashtirib o'qilishi o'quvchilarni tez o'qishga ham o'rgatadi.

Har bir yangi so'zni o'qishni avval xattaxtadagi yozuvdan yoki kesma harflardan tuzib o'qishdan boshlash, keyin kitobdan o'qish zarur. Xattaxtadagi so'zlarni bosma harf bilan yozish, kesma harflardan so'z tuzish bolalar diqqatini bir nuqtaga to'plashga yordam beradi, shuningdek, bolalarning o'qish ko'nikmasini sinab ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, o'qituvchi *olma* so'zini bo'g'inlarga bo'lib, tovushlarni bir necha marta aniq qilib aytib beradi, o'quvchilar uni diqqat bilan tinglab, kesma harflardan shu so'zni tuzadilar. Bu so'zni kesma bo'g'inlardan ham tuzishlari mumkin. O'quvchilar tuzgan so'zni tekshirish uchun bir o'quvchi harf kartonida shu so'zni tuzadi. Boshqa o'quvchilar o'zlari tuzgan so'zlarning to'g'riligini o'qituvchining yordami bilan tekshirib chiqadilar.

Har bir darsda kesma harflar bilan ishlashga vaqt ajratish zarur, chunki o'quvchi so'z tuzish jarayonida uni yozishga ham o'rganadi.

Kitobda o'qish uchun tavsiya etilgan so'zlar ustunchalarga bo'lib, guruhlashtirib berilgan, har qaysi ustunchadagi so'zlar boshqa betdagi so'zlardan ajralib turadi. Bir betda ustunchada berilgan so'zlar boshqa betdagi so'zlardan tuzilishi bilan farq qiladi. Bu so'zlarning xususiyati o'rganilgan yangi harf va so'zlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Ularni o'qishda bolalar ba'zan qiynalishlari ham mumkin. Buning uchun o'qishning dastlabki mashg'ulotlarida kitob ustunchalarida berilgan so'zlarni o'qituvchi xattaxtaga yozadi yoki bunday so'zlarni maxsus plakatlarga yozib qo'yishi ham mumkin. Bolalar bu xil so'zlarni o'qishga o'rganib olganlaridan song, kitobdagi so'zlar o'qiladi, o'qish shu yo'l bilan mustahkamlanadi. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi: "Ustunchalardagi so'zlarni o'qishda kim qiynaldi?", "Kim to'g'ri va tez o'qiydi?". Bu xildagi savollarga bolalar tezda javob beradilar. Bunday savollar o'qish jarayonida bolalarni diqqat bilan o'tirishga odatlantiradi.

Ustunchadagi so'zlarning to'g'ri o'qilishi uning mazmunini tushunish imkonini beradi. Buning uchun bu so'zlar o'qib bo'linqach, har bir so'z yuzasidan bolalarga savollar berish lozim. *Mashina* so'zi o'qilgach, "Mashinani qaerda

ko'rgansiz?", *O'ktam* so'zi o'qilgach, "Kimning oti O'ktam?" kabi savollarning berilishi shu so'zlarning mazmunini tushunishga yordam beradi. Bolalar butun so'zlarni bir-biriga qiyoslash yo'li bilan o'qiydilar. Bunday qiyoslash ongli va to'g'ri o'qishga undaydi. "Alifbe" kitobining 46-betida quyidagi so'zlar ustunchalarda berilgan:

bog'	*g'o'-ra*	*G'a-ni*
bog'-cha	*G'un-cha*	*G'u-lom*
bog'-bon	*G'ay-rat*	*U-lug'*

Ko'rinib turibdiki, *bog'* so'zini o'qigan bola unga *-cha* bo'g'inini qo'shish orqali bo'g'cha so'zini hosil qiladi, so'ng uni qiynalmay o'qiydi. Ikkinchi va uchinchi ustundagi so'zlar ohangdosh (ikki bo'g'inli) so'zlardir. Bunday ohangdoshlik ifodali o'qishni ta'minlaydi. O'qituvchi bolalarga bu so'zlarni o'qitishda so'z urg'ularining to'g'ri ishlatilishiga ham e'tibor berishi kerak.

Ustunchadagi so'zlarni o'qish hamisha ham oson bo'lavermaydi, ba'zi hollarda o'quvchilar qiynalishlari ham mumkin. Bunday qiyinchiliklar turlicha xarakterga ega bo'ladi. Ba'zi o'quvchilar harf birikmalarini to'g'ri talaffuz qiladilar va o'qiydilar. Bolalarning o'qishidagi bu xil kamchiliklarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ba'zilar bola bir bo'g'inni *(mi)* o'qishni yaxshi o'rgansa, shu turdagi boshqa bo'g'inlarni *(na, ki, si, di* kabi) ham yaxshi o'qiydi, deb o'ylaydilar. Ayniqsa, o'qish jarayonida kam uchraydigan bo'g'inlarni o'qishga ko'proq e'tibor berish kerak bo'ladi. Masalan, nav *(navbat),* - roq *(ko'proq),* - sand *(xursand)* kabi. Bunday hollarda o'qituvchi doim bolalarga yordam berishi, ya'ni ba'zan shu bo'g'inni kesma harflar yordamida ko'rsatishi, ba'zan uni o'qish yo'llarini izga solish, ba'zan o'zi o'qib ko'rsatishi zarur. Bu usullarning yaxshi natija berishi o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Ayrim bolalar kitobdagi so'zlarni birma-bir o'qigandan so'ng, shu so'zning aytilishini va kitobdagi o'rnini yodlab oladilar. Keyingi o'qish jarayonida so'z tarkibiga qaramay, yoddan o'qiydilar. Bunday o'qishning natijasi yaxshi bo'lmaydi, foydasiz harakatga aylanib qoladi. Bunday o'qishning oldini olish uchun yodlab oluvchi o'quvchilarni

ajratib, kesma harflardan tuzilgan so'zlarni o'qishga undash lozim. U holda so'z tarkibidagi ayrim harf va bo'g'inlar almashtirib turiladi, kitob o'qiganda esa, bunday bolalarga shunday topshiriq berish mumkin: "Har ustunning oxirgi so'zlarini o'qi" yoki "Har ustunning ikkinchi so'zini o'qi" va hokazo. Bu usul bolalarni so'zlarni yodlab o'qishdan saqlaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning diqqati o'qish jarayonida, asosan, harfga, ularning qo'shilishiga tushib, bola so'z ma'nosiga diqqatini qarata olmaydi. Oson so'zlarning ma'nosini so'rasangiz ham dadil javob bera olmaydi. O'qish— uqish demakdir, ya'ni ma'nosini tushunmay o'qish o'qish hisoblanmaydi. O'qishning o'zi o'qilayotgan so'zning ma'nosini ochishdan iboratdir. Demak, o'quv mashg'ulotining dastlabki kunidanoq, o'qituvchi o'qishning to'g'riligini qancha zarur deb tushunsa, o'qishning ongliligini ham shuncha zarur deb bilishi lozim. Qaysi so'zni o'qituvchi o'qish uchun tavsiya etsa, shu so'zning ma'nosiga bola ham tushunganiga qanoat hosil qilish lozim. Bu hol keyingi matnni tushunishda ham bolani qiynamaydi. Buning uchun:

1) o'qilgan so'zlar ishtirokida bolalarni gap tuzishga o'rgatish;

2) o'qilgan so'zlarning ma'nosi yuzasidan savol-javob tashkil qilish kerak.

Lola lola terdi gapidagi har ikkala *lola* so'zining ma'nosini bolalar tushunadimi, tushunmasa, sabab nimada? Buni o'qituvchi aniqlashi va o'z vaqtida tegishli yo'llar bilan tushuntirishi lozim.

GAP VA MATNLARNI O'QISHGA O'RGATISH.

Ustunchalardagi so'zlarni o'qishga o'rgatish bolalarni gaplarni o'qishga tayyorlaydi.

So'zlarni ongli o'qish gaplarni ongli o'qishni ta'minlaydi. O'qishda bolalar gapdagi hamma so'zlarning ma'nosini tushunmasligi mumkin. Alifbo davrida o'quvchilarda yetarli o'qish ko'nikmasi bo'lmagani uchun, ularning diqqati faqat bir so'z ma'nosiga yoki kichik hajmli gap ma'nosiga tortiladi, matn mazmunini tushunishga hali qiynaladilar. Bunga erishish uchun o'qituvchi har bir o'qish mashg'ulotida

bolalar o'qigan so'z, gap, matn mazmunini tushunib o'qishlariga e'tibor berishi kerak. O'qilgan gapning, ayniqsa, matnning mazmunini tushunishda ifodali o'qish katta rol o'ynaydi. Odatda, bolalarning o'qish ohangi so'zlashuv ohangidan farq qilmaydi. O'qishda jonlilik sezilmaydi, sun'iy ohang bilan o'qiydilar. Bu hol, so'zsiz, ifodalilikni buzadi. Bolalarni ifodali o'qishga o'rgatish juda murakkab ishdir. Buning uchun o'quvchilar matnni bir marta o'qib chiqadilar. Keyin o'qituvchi matnning xarakteriga qarab o'zi ifodali o'qib beradi, har bir gapni qanday ohang bilan bog'lash, gap tugaganda nuqta oldidan ovozni pasaytirish kerakligini tushuntiradi. O'quvchilarning ifodali o'qishlari matn mazmunining to'g'ri va to'liq tushunilishiga imkon beradi.

Bolalar gap ma'nosini tushunib oldimi yoki gapdagi har bir so'zning ma'nosini tushundimi? Buni ham o'qituvchi bilishi kerak. Birinchi sinfda bolalarning javobi to'liq bolishi, bir so'z bilan "Ha, yo'q" deb javob berishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Matnning mazmunini tushunish uchun matn tarkibidagi barcha gaplar mazmunini tushunishi, ularni bir-biriga bog'lay olishi talab qilinadi. Bu esa bola uchun murakkab bo'lganligi sababli o'qituvchining savoli ularning tushunishiga yo'llanma, vosita vazifasini o'taydi. O'qituvchining bunday yordami o'quv davrining xarakteriga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, agar alifbo davrining dastlabki bosqichlaridan boshlab bolalarga bunday savollarga javob berish o'rgatib borilsa, keyinchalik ularga umumiyroq savollar bilan murojaat qilish mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning o'qish tezligi, o'qishdagi ifodalilik bir xil rivojlanmaydi. Ayrim o'quvchilar o'qish malakasini osonlikcha, tez egallasalar, boshqalari sekin, shoshilmay, bo'g'inlab o'qiydilar. Buning sabablari o'z-o'zidan ma'lum: o'quvchilarda o'zlashtiruvchanlik, o'z diqqatini markazlashtirish, umumiy tayyorgarlik darajalari hech qachon bir xilda bo'lmaydi.

Alifbo davrining uchinchi bosqichida matn mazmunini to'liq tushunish uchun tanlab o'qishning ham ahamiyati kattadir. Tanlab o'qish, avval ayrim so'zlarni to'g'ri o'qishni o'rgatadi, so'ng ayrim gap, so'zlarni matn tarkibidan izlab

topish, ma'lum so'zni boshqa so'zlardan ajrata olish uquvini hosil qiladi. Bu esa bolalardagi o'qish ko'nikmasini takomillashtiradi. Eng muhimi, matnda fikr nima haqda borayotganini aniqlab olish, matn mazmunini to'liq tushunib yetish imkonini beradi.

O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH.

Yozuv darslari o'qish darslari bilan yondosh olib boriladi. Bolaning yozish va o'qish ko'nikmasi o'zaro uyg'un holda rivojlanishi kerak.

Yozuv darslarida avvalo harflarning yozma va bosma shakllari bilan tanishtiriladi, so'ng ularni to'g'ri va chiroyli yozishga kirishiladi: harf unsurlari, ularning yozilish usuli birma-bir tushuntiriladi.

O'qituvchi dastlab yozuv odobini tushuntiradi. Yozuv odobi bolaning partada to'g'ri o'tira olishi va ruchkani to'g'ri ushlay bilishidan boshlanadi.

Yozuv darsida bola charchamasligi, toliqmasligi, zo'riqmasligi, shoshmasligi va qo'li tolmasligi kerak. To'xtovsiz yozdirish, ko'p yozdirish bolaning xohish va qiziqishini so'ndiradi.

Yozuv ta'limi savod ta'limining asosini tashkil etadi. Shuning uchun yozuv darslariga alohida mas'uliyat bilan qaraladi va unga jiddiy talablar qo'yiladi.

O'quvchilarning daftarlariga qo'yiladigan talablar.

O'quvchi bilimi ham, shuningdek, o'qituvchi ishining sifati ham ma'lum darajada bolalar daftarida namoyon bo'ladi. Bolalarning daftari (ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilarining daftarlari) uning mehnat intizomi namunasi, darsda olgan bilimlari natijasidir. Shuning uchun har bir o'quvchi daftarning to'g'ri tutilishi va ozoda saqlanishiga e'tibor berishi zarur.

Daftarning tashqi jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.

1. 1- yozuv daftarining muqovasida aniq va chiroyli yozuv bilan o'quvchi manzili ko'rsatiladi. Birinchi sinfda daftar betiga o'qituvchi yozib beradi. Ikkinchi va uchinchi sinflarda esa o'qituvchi yozuviga muvofiq o'quvchining o'zi yozadi.

2. Daftarning 2,5—3 sm kenglikda hoshiyasi bo'ladi.

3. Daftardagi hamma yozuvlar chiroyli va toza bo'lishi shart, o'quvchi daftarga dastlab qalamda, keyin ruchka bilan yozadi.

4. Daftarga sana, raqam, oy nomi harflar bilan yoziladi.

5. Yozganda daftar hoshiyasidan chiqib ketmaslik kerak.

6. So'zlar ko'chirish qoidasiga binoan bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chiriladi. Birinchi qatorni xatboshi bilan yozishga o'rgatiladi. Xatboshi uchun tashlangan joy taxminan bolaning bir barmog'i kengligida bo'ladi.

7. Daftar varag'i oxirigacha to'ldiriladi. Agar daftar beti oxirida bir-ikki qator qolsa-yu, sana va ishning nomini yozish kerak bo'lsa, u yo'l qoldiriladi.

8. Mashq ishlash jarayonida so'z va uning qismlarini biror jihatdan aniqlash maqsadida uning ostiga chizish topshirilsa, oddiy qalam bilan chiziladi.

Bolalarning yozuvlariga qo'yiladigan talablar.

1. O'quvchilar yozma mashqning hamma turini "1- yozuv daftari" ga yozadilar. Kundalik mashqlardan tashqari, yozma ishlar ham shu daftarga yoziladi.

2. Turli rasmlar, grafalar, jadvallar yozuv daftariga yozilmaydi.

3. O'quvchilar yozuvda xato qilgan so'z va so'z birikmalari o'qituvchi tomonidan o'ng tomonda, hoshiyada tuzatiladi. Bularni to'g'rilab qayta yozish ishlari faqat o'qituvchining ruxsati bilan bajariladi.

4. Bolalar bajarishlari kerak bo'lgan ish mazmuni o'qituvchi tomonidan boshqa rangda siyoh bilan yozib qo'yiladi a) biror so'z, bo'g'in, harf va ularning qo'shilishini yozib ko'rsatadi; b) bolalarning har bir xatosi tuzatiladi; g) ishga baho qo'yiladi; d) o'quvchining bajarishi zarur bo'lgan topshiriqlar ham daftarga yozib qo'yiladi.

5. Bolalarning har bir yozuvini baholayverish shart emas. Ba'zi hollarda bola yozuvidagi yutuq va kamchiliklar, shu kamchiliklarni tuzatish yo'llari qisqa va aniq qilib yozib qo'yilishi mumkin. Masalan, *k* harfini yozishni bilib olibsan, *v* harfini ham to'g'ri yoz. Daftarni iflos qilma! Chiziqlarni to'g'ri chamala! va hokazo.

Bola daftariga o'qituvchi tomonidan yozilgan izoh bola uchun yozuv namunasi vazifasini bajaradi. Shuning uchun o'qituvchining yozuvi husnixat talablariga to'liq javob beradigan bo'lishi zarur.

O'QISH VA YOZUVGA O'RGATISH DARSLARI ISHLANMALARI.[1]

Yozuv daftari va uning chiziqlari bilan tanishtirish. Bayroqcha, lola va soat rasmlarini chizish.

1. O'quvchilar faoliyatini uyushtirish. O'qituvchi hozir yozuv darsi ekanligini aytib, yozishni o'rganishning ahamiyati haqida to'xtaladi. Yozayotgan vaqtda to'g'ri o'tirish kerakligini aytib, o'quvchilar diqqatini "To'g'ri o'tirish" rasmiga qaratadi. O'quvchilar to'g'ri o'tirishni mashq qiladilar.

2. "Yozuv daftari" bilan tanishtirish. Bolalarga yozuv daftari ko'rsatilib, shu daftar yordamida yozishga o'rganishlari, daftarni ozoda va yaxshi saqlash kerakligi tushuntiriladi. Har bir o'quvchiga daftar tarqatiladi. O'quvchilar daftarni varaqlab tanishib chiqadilar.

3. Ruchka bilan tanishtirish. O'qituvchi sharikli ruchka, undan foydalanish haqida tushuncha beradi. O'quvchilarga ruchkani to'g'ri ushlash qoidalarini o'rgatadi, amalda ko'rsatadi. O'quvchilar ruchkani ushlab ko'rsatadilar. O'qituvchi yozuv darsida rangli qalamlardan ham foydalanishni aytadi.

4. Dam olish daqiqasi (fizminut). Shoir Qambar O'taning "Qalam deydi" she'ri o'qib beriladi, mazmuni izohlanadi. O'quvchilar har bir satrni o'qituvchi yordamida jo'r bo'lib aytadilar:

Qalam deydi:
Yozavergin,
Ilm konin
Qazavergin.
Faqat meni
Sindirmagin
Ayab, aslo
Tindirmagin.

---

[1] Alifbogacha bo'lgan tayyorgarlik davriga odatda 7 soat ajratiladi. Bu yerda faqat 1 dars namunasini berish bilan kifoyalandik.

5. Rasm asosida suhbat. Bolalarning diqqati "Yozuv daftari"dagi rasmlarga qaratiladi. Bayroqcha, lola va soat haqida suhbat o'tkaziladi.

6. "Yozuv daftari"dagi chiziqlar bilan tanishtirish. Daftar chiziqlari ikki xil kenglikda berilgan. Orasi kichik sidirg'a chiziqli va orasi keng chiziqli. Yozish asosan sidirg'a chiziqlar orasida bo'ladi. Daftardagi qiya chiziqlar esa harflarni qanday qiyalikda yozish kerakligini ko'rsatadi.

7. Dam olish daqiqasi. Quyidagi topishmoqni o'qituvchi harakat bilan aytadi: Oq yer ochdim, qora urug' sochdim. (Daftar va undagi yozuv.) Topishmoqning javobi topilgach, bolalar jo'r bo'lib aytadilar.

8. Amaliy mashqlar. O'qituvchi bayroqcha rasmini chizishda qo'l qanday harakat qilinishi kerakligini tushuntiradi: ruchka uchi keng chiziqlar o'rtasiga qo'yilib, pastga tomon chizib, yozuv yo'lining pastki chizig'iga yetganda chizish to'xtatiladi.

Bu bayroqchaning cho'pi bo'ladi. Chizishni boshlagan nuqtaga ruchka uchini qo'yib dastlab o'ngga, so'ng chapga - bayroqcha tayog'i tomon chizasiz.

O'quvchilar ish daftaridagi nuqtalar bilan berilgan bayroqcalarning ustidan chizib chiqadilar, so'ng namunaga qarab bayroqchalarni mustaqil ravishda chizadilar.

9. Dam olish daqiqasi.

- Bog'chaga boraman, — deydi.
- Birga boraman, — deydi.
- Qo'shiq aytaman, — deydi.
- Rasm solaman, — deydi.
- Dono bo'laman, — deydi.

(Olim Qo'chqorbekov.)

10. O'qituvchi daftarning pastki qismida berilgan rasmlarni nuqtalar ustidan chizish namunasini xattaxtada ko'rsatadi. So'ngra o'quvchilar ish daftarida ishlaydilar.

11. Dars yakunida o'quvchilardan bu darsda nimalarni o'rganganliklari so'raladi. Ular bu dars yozuv darsi ekanligini, unda partada o'tirish, ruchka ushlash, daftarni qanday qiyalikda qo'yish qoidalarini, bayroq va boshqa shakllarni chizishni o'rganganliklarini aytadilar.

Alifbo davri.

1-dars. o, t tovush-harflari.

Darsning maqsadi: *o* va *t* tovushlarining to'g'ri talaffuzini o'rgatish. o va t harflari bilan tanishish.

Darsning jihozi: "Harf xaltasi", harf lentasi, kesma harflar, nomida o va t tovushi ishtirok etgan narsalar rasmi. "Alifbe" ning 8- betiga moslab ishlangan ko'rsatma qurollar, oyna (ko'zgu).

1. O'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkaziladi. Nutq tovushlari qanday guruhlarga bo'linadi? (Unli va undosh tovushlarga bo'linadi). Shundan keyin o'qituvchi so'z aytadi: *parta, ota, qalam, tol.* O'quvchilar so'zning qanday tovush bilan boshlanganini va oxirida qanday tovush eshitilayotganini aniqlaydilar.

O'qituvchi suhbatni quyidagicha yakunlaydi: sizlar tovushlarni talaffuz qildingiz, eshitdingiz. Eshitish orqali undosh va unli ekanini bildingiz.

2. O'qituvchi xattaxtaga ot rasmini osib, rasmdagi narsa nomini o'quvchilardan so'raydi. Rasm yuzasidan quyidagicha suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi. — Bolalar, ot qanday hayvon?

O'quvchi. — Ot — uy hayvoni.

O'qituvchi. — Ot nima yeydi?

O'quvchi. — Ot o't, yem, beda yeydi.

O'qituvchi. — Odamlarga otning foydasi bormi?

O'quvchi — Ha, bor.

O'qituvchi. — Qani, kim aytadi, otdan qay vaqtlarda foydalaniladi?

O'quvchi. — Kishilar otdan yuk tashishda, olis yerlarga borishda, ot sporti musobaqalarida foydalanishadi.

O'qituvchi. — To'g'ri aytdingiz. Qadim zamonlardan ot kishilarning yaqin yordamchisi bo'lgan, ularning og'irini yengil qilgan, deb suhbatni yakunlaydi. Suhbatdan *Ot — uy hayvoni* gapi ajratib olinib, tovush tomondan tahlil qilinadi. Tahlilda quyidagi savollardan foydalaniladi.

Ot — uy hayvoni. Men gap aytdim. Bu gapda nechta so'z bor? Gap yozuvda qanday harf bilan boshlanadi?

Gapning oxiriga qanday belgi qo'yamiz? Men gapni qayta aytaman. Siz shu gapdagi *o* tovushli so'zni topasiz. O-o-o-t— uy hayvoni. Bolalar ot so'zini 1-2 marta talaffuz qilgach, o'qituvchi shu so'zning nechta bo'g'in va tovushdan tuzilganini aniqlash vazifasini topshiradi. So'zning bir bo'g'inli ekani, unda ikkita tovush - o, t borligi ayttiriladi. So'zning andazasi (sxemasi) xattaxtaga chiziladi. So'ng o tovushining o'rni toptiriladi va o tovushi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

O'qituvchi. — Men o tovushini aytaman: o-o-o. Endi siz cho'zib talaffuz qilib ko'ring. *O* qanday tovush ekan?

O'quvchi. — O—unli tovush.

O' qituvchi. — Ot so'zida yana qanday tovush eshitilyapti?

O'quvchi. — t tovushi.

O'qituvchi. — Men t tovushini talaffuz qilaman. Siz diqqat bilan eshiting: t-t-t. Endi siz talaffuz qilib ko'ring. t qanday tovush ekan?

O'quvchi. — t—undosh tovush.

O'qituvchi. — Bugun o va t tovush-harflarini o'rganamiz.

O — unli tovush, uni cho'zib aytsak ham o deb aytilaveradi. O tovushi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi. O tovushining aytilishiga doir mashqlar o'tkaziladi. O'qituvchi xattaxtaga nomida o tovushi bor narsa rasmlaridan (olma, chumoli, taroq, kitob) osib qo'yadi. Bolalar shu rasmdagi narsalarning nomlarini aytadilar.

O'qituvchi. — Bolalar, siz hozir o va t tovushlari bilan tanishdingiz. Nutqdagi har bir tovush yozuvda shakllar bilan belgilanadi. Yozishni bilish uchun harfni bilishimiz kerak. Men sizga hozir o tovushining harfini ko'rsataman. (O'qituvchi alohida yozilgan kichik va bosh o harflarini ko'rsatadi.) Mana bu kichik o harfi, mana bunisi bosh O harfi. Kitoblarda, gazeta, jurnallarda o'qiladigan bu harflarni bosma harflar deymiz. Mana bunisi esa daftarga yozadiganimiz —o harfi. (Alohida yozilgan o O harflarini ko'rsatadi). Xattaxtadagi andazaga o harfining bosma kichik shakli qo'yiladi. Bosma va yozma T t harflarining kichik va bosh shakllari yuzasidan ham shu tartibda suhbat o'tkaziladi.

3. Kesma harflar bilan ishlash.

O'qituvchi kesma harflar bilan ishlash yo'llarini tushuntiradi. O'quvchilar kesma harflar ichidan o, t harflarini topib „Harf xaltasi" ga qo'yadilar.

4. Rasm asosida hikoya tuzish. O'quvchilar ot-aravada sayr qilib yurgan bolalar haqida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzishda o'qituvchi quyidagi kabi savollar bilan yordamlashadi. Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Kim bolalarga tarkibida o, t tovushlari bo'lgan ism topa oladi? (Olim, Tolib.) Bolalar qayerda sayr qilib yuribdilar? Ular nimada sayr qilmoqdalar? Ot-aravani kim haydayapti?

O'qituvchi o'quvchilar javobini yakunlaydi.

5. Dam olish daqiqasi.

6. Darslikdan o'qish. O'qituvchi darslikdagi *ot* so'zini o'qishni o'rgatadi. O'qish uchun harf ifodalaydigan tovushlar aytilishi kerakligi eslatiladi. Bosma va yozma shaklda yozilgan *ot* so'zlari o'qib beriladi.

7. So'zlar topish. O'quvchilarga o va t tovushli so'zlar toptiriladi. So'zlardagi bu tovushning o'rni aniqlanadi.

8. Darsda o'rganilganlar savol-javob orqali eslatiladi, harf lentasiga bosma o,t harflari yozdiriladi. Dars yakunlanadi.

2- dars. Kichik o, t harflarini yozish.

1. Ot rasmi ko'rsatilib, ot so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi.

2. Qiyoslash. Bosma va yozma kichik *o* harflari qiyoslanadi.

3. O'qituvchi xattaxtaga *o* harfini yozib ko'rsatadi.

4. O'quvchilar *o* harfining yozilishini avval havoda mashq qiladilar. So'ngra "Yozuv daftari"da berilgan namunalarga qarab yozadilar.

5. O'qituvchi *o* harfini boshqa harflarga ulanishini tushuntiradi va yozib ko'rsatadi.

6. O'quvchilar daftarda mashq qiladilar.

7. O'qituvchi ot so'zidagi ikkinchi tovush qaysi ekanligini o'quvchilardan so'rab aniqlagach, bosma va yozma kichik *t* harflari qiyoslanadi.

8. O'qituvchi xattaxtada kichik *t* harfini yozib ko'rsatadi. Kichik *t* harfini yozishda katta ilmoq shakli chizilib, yuqori yozuv chizig'i ustiga to'lqinsimon belbog'cha qo'yiladi.

9. Amaliy mashq. O'quvchilar "Yozuv daftari" ga t harfini yozadilar.

10. So'z yozish. O'qituvchi *ot* so'zini xattaxtaga yozib ko'rsatadi. Bunda o harfining tutashtirilishiga e'tibor beriladi.

11. "Yozuv daftari" dagi shakllar ustidan chizdiriladi, dars yakunlanadi.

3- dars. Bosh O va T harflarini yozish.

1. *Ota* so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi.

2. O'qituvchi xattaxtaga bosh *O* harfini yozib tushuntiradi.

3. Amaliy mashq. O'quvchilar havoda mashq qilgach, daftarga yozadilar.

4. *Ota* so'zining ikkinchi tovushi *t* ekanligi eslatilib, bosh T harfi yozib ko'rsatiladi.

5. Amaliy mashq. O'quvchilar havoda mashq qilgach, daftarga yozadilar.

6. So'z topish. T tovushi bilan boshlanadigan o'g'il va qiz bolalar ismi aytiriladi.

7. "Yozuv daftari" dagi shakllar ustidan chizdiriladi. Undan *T* harfi unsuriga o'xshash chiziqlar aniqlanadi.

4-dars. a A tovush-harflari.

Darsning maqsadi: Bolalarni a A tovush-harflari bilan tanishtirish.

Darsning jihozi: "Harf xaltasi", "Harf tasmasi", harf konturi, sanoq cho'p, rasmlar.

1. Takrorlash. O'qituvchi kesma harflardan o, t harflarini topishni aytadi. Ikki o'quvchi doskada, qolganlar esa o'tirgan joylarida bajaradilar. So'ngra har bir tovush yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi. — O qanday tovush?

O'quvchi. — Unli tovush.

O'qituvchi. — Nima uchun o unli tovush hisoblanadi?

O'quvchi. — O tovushi og'izda to'siqqa uchramaydi, cho'zib aytish mumkin.

O'qituvchi. — O harfining qanday shakllari bor?

O'quvchi. — O harfining bosma va yozma, bosh va kichik shakllari bor.

Xuddi shunday suhbat t tovush-harfi yuzasidan ham o'tkaziladi.

2. Darslikdagi bosma va yozma shaklda berilgan so'zlar o'qiladi.

3. O'quvchilarning javoblari, o'qishlari yakunlanadi.

4. Dam olish daqiqasi. Bu yerda va bundan keyin ham nima qilishni o'qituvchi belgilaydi.

5. O'qituvchi xattaxtaga anor rasmini osib, uning nima ekanligini, nomini o'quvchilardan so'raydi. O'qituvchi so'zni talaffuz qilib ko'rsatadi. O'quvchilar ham anor so'zining to'g'ri talaffuzini mashq qiladilar. O'qituvchi bu so'zning nechta bo'g'indan tuzilganini so'raydi. O'quvchilar chapak chalib, so'zning ikki bo'g'indan tuzilganini aytadilar. So'ngra har bir bo'g'inning nechta tovushdan iboratligi aniqlanadi. Birinchi bo'g'in bitta a tovushidan, ikkinchi bo'g'in uchta n, o, r tovushidan iboratligi ko'rsatiladi.

O'qituvchi. - Men birinchi bo'g'inni qayta aytaman. Siz so'z boshida kelgan tovushni aniqlaysiz. O'quvchilar birinchi bo'g'inda faqat a tovushini eshitayotganliklarini aytadilar.

O'qituvchi. - So'zning ikkinchi bo'g'inini diqqat bilan kuzating. Biz o'rgangan qanday tovush bor?

1- o'quvchi. Ikkinchi bo'g'inda biz o'rgangan o tovushi bor. O'qituvchi xattaxtadagi so'z andazasiga (sxemasiga) o harfini yozib qo'yadi.

O'qituvchi. — Endi men a tovushini talaffuz qilaman: a-a-a. Mana, eshitganingizdek bu tovushni istagancha cho'zib talaffuz qilish mumkin. Bu tovushni ham talaffuz qilganingizda havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi. Og'iz ochiladi. Demak, a unli tovush ekan. O'quvchilar oynaga qarab a tovushini talaffuz qiladilar.

6. a tovushining eshitilishiga doir mashqlar. O'quvchi bir necha so'z aytadi. Bolalar qaysi so'zda a tovushi bo'lsa, qizil rangli doirachani ko'rsatib signal beradilar. So'ng a tovushining o'rni aniqlanadi.

7. Dam olish daqiqasi.

8. a, A harflarini tanitish. O'qituvchi alohida qog'ozga yozilgan avval bosma, so'ngra yozma A harflarini ko'rsatadi. Bosma va yozma shakldagi bosh va kichik a harflarining o'xshash va farqli tomonlari ko'rsatiladi. Bosh

va kichik a harflari bir-biriga o'xshamaydi, degan xulosa chiqaradilar.

9. Darslik bilan ishlash. Kitob ochtirilib ko'rsatilgan harflarga o'xshash harflarni topish so'raladi. So'ngra rasm asosida suhbat qilinadi. Hikoyadan *Olim ota otga yem berdi* gapidagi *ota* so'zi ajratib olinadi. Darslikda berilgan andaza bo'yicha tovush tomondan tahlil qilinadi. Bunda o'qituvchi quyidagi kabi savollardan foydalanadi. 1. *Ota* so'zi necha bo'g'indan iborat? 2. So'zda nechta tovush bor? 3. *Ota* so'zida harflar nechta? 4. Birinchi bo'g'in nechta tovushdan tuzilgan? Ikkinchi bo'g'in-chi? 5. Unli tovush-harflar qaysilar? 6. Undosh tovush-harfni ko'rsating. 7. So'zdagi a tovushining o'rnini ayting.

10. Dam olish daqiqasi.

11. O'qish mashqlari. O'qituvchi o'qish uchun harf ifodalaydigan tovush aytilishini, bo'g'inlab o'qish uchun ikkita yoki undan ortiq tovushlarni qo'shib aytish kerakligini eslatadi. O'qituvchi darslikdagi so'zlarni o'qib beradi va 5-6 o'quvchiga so'zlar o'qitiladi.

12. Kesma harflar bilan ishlash. O'qituvchi kesma harflardan bosh va kichik a harflarini topishni so'raydi. Barcha o'quvchilarning ishi ko'rib chiqilgach, bir o'quvchi xattaxtada o harfini, ikkinchi o'quvchi t harfini topadi. Boshqa o'quvchilar ham o'z harf xaltalarida shu ishni bajaradilar, shu tartibda *ota* so'zi yozdiriladi.

13. Dars yakunida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi. Bu darsda qaysi tovush-harfni bilib oldingiz?

A a tovush-harflari. A qanday tovush ekan? (Unli) Nima uchun? (Uni cho'zib aytish mumkin, havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi.) A tovushining qanday shakllari bor? (Bosh va kichik, yozma va bosma.)

5- dars. Kichik va bosh a A harflarini yozish.

1. O'quvchilar yozuv daftaridagi ayiq rasmi asosida gaplar tuzadilar. *Ayiq* so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi.

2. Bosma va yozma kichik *a* harfi qiyoslanib, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.

3. O'qituvchi xattaxtaga kichik a harfini yozib ko'rsatadi.

Ruchka uchi yozuv yo'lining yuqori chizig'idan biroz pastroqqa qo'yiladi, yuqori chiziqqa teqizilib, chapga bukilib, pastga tomon chiziladi. So'ngra oval hosil qilinib, chiziqlar tutashtirilgan joydan ilmoqcha chiziladi.

4. a harfining qanday qismlardan tuzilganligi tushuntiriladi.

5. O'quvchilar a harfini yozishni havoda mashq qiladilar.

6. "Yozuv daftari" dagi nuqtalar bilan berilgan a harfi ustidan chizadilar. Keyingi qatorga ham kichik a harfini yozadilar.

7. O'quvchilar bosma va yozma bosh A harfini qiyoslaydilar. O'xshash va farqli tomonlarini aytadilar.

8. O'qituvchi bosh A harfini yozib ko'rsatadi va quyidagicha tushuncha beradi:

- Bosh A harfini yozishda ruchka uchi pastki yozuv chizig'idan sal yuqoriga qo'yilib, pastga tushirib ilmoq hosil qilingach, qiyalatib yuqoriga chiqiladi. Shu joydan pastga qarab katta tayoqcha unsuri chiziladi. Qo'lni uzmasdan yuqorigi yozuv chizig'iga qaytiladi va halqacha hosil qilinadi.

9. Bosh A harfining grafik tahlili.

10. O'quvchilar A harfini yozishni havoda mashq qiladilar.

11. "Yozuv daftari" dagi namuna kuzatiladi, ustidan ruchka yurgiziladi. Qolgan qatorlarga o'quvchilar mustaqil ravishda A harfini yozadilar.

12. Anor rasmini rangli qalamlar bilan bo'yaydilar.

6- dars. n N tovush-harflari.

Darsning maqsadi. O'quvchilarga n N tovush-harflarini o'rgatish. Unli va undosh tovushlar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Darsning jihozi: "Harf xaltasi", kesma harflar, nomida *n* tovushi ishtirok etgan narsa rasmlari, tayoqchalar.

1. Takrorlash. "Harflarni to'g'ri qo'y" o'yini o'tkaziladi. Kesma harflar "Harf terish" kartoniga qo'yiladi

Xattaxtadagi harflarni to'g'rilab qo'yish uchun o'quvchilardan biri chiqariladi. Tovushlar unli, undosh ekanligi so'raladi. O'qituvchi xattaxtaga bosma va yozma harflar

bilan yozilgan darslikdagi so'zlarni o'quvchilarning diqqatiga havola qiladi. O'quvchilar birin-ketin xattaxta oldida so'zlarni o'qiydilar.

2. Yangi tovush bilan tanishtirish. O'quvchilar diqqati xattaxtaga yozib qo'yilgan non rasmiga qaratiladi. Non rasmi asosida savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning fikri tinglangach, nonning hamma narsadan azizligi, non — rizq-ro'zimiz, dasturxonimiz ko'rki ekanligi, uni isrof qilmaslik kerakligi haqida suhbat o'tkaziladi va so'z andazasi xattaxtaga chizdiriladi. Dastlab bu andazadagi o'rganilgan tovush o'rni toptirilib, katakcha ichiga o'sha tovushni ifodalaydigan harf yozdiriladi.

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga: "Men shu so'zni aytaman, siz so'zning boshida qaysi tovush kelganini aytasiz", — deydi. O'quvchilar *n* tovushi deyishgach, bugungi darsda n tovushi bilan tanishishlari e'lon qilinadi. O'qituvchi o'zi bir necha marta *n* tovushini talaffuz qilib ko'rsatadi, o'quvchilar ham oynaga qarab talaffuz qiladilar. So'ngra *n* tovushi ustida ishlanadi.

O'qituvchi. — Men shu so'zni qayta aytaman, siz yana shu so'zning qayerida *n* tovushini eshitayotganingizni aytasiz: n-o-n.

O'quvchi. — n tovushi so'zning oxirida ham bor.

O'qituvchi. — Non so'zi nechta bo'g'inli? (Bir bo'g'inli.) Nima uchun? (Bir unli tovush bor.)

Non so'zida nechta tovush bor? (Uchta tovush bor.) Tovushlarni sanang (n, o, n).

O'qituvchi. — n tovushini cho'zib aytib bo'ladimi?

O'quvchi (aytib ko'rish orqali). — Yo'q, cho'zib aytib bo'lmaydi.

O'qituvchi. — Cho'zib aytib bo'lmaydigan tovushlar unli bo'ladimi, undosh bo'ladimi?

O'quvchi. — Undosh tovush bo'ladi.

O'qituvchi. — Demak, n tovushi qanday tovush ekan?

O'quvchi. — n — undosh tovush.

Savol-javobdan keyin o'qituvchi n undosh tovushining hosil bo'lish o'rni haqida tushuncha beradi, n undoshi talaffuzida og'iz ochiladi, lekin katta ochilmaydi, til uchi yuqori milklarga tegadi, n tovushi talaffuzida havo og'iz

bo'shlig'ida to'siqqa uchrab chiqadi, shuning uchun uni cho'zib aytib bo'lmaydi. O'quvchilarga n tovushi yana talaffuz qildiriladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. n tovushining talaffuzi va eshitilishiga oid mashqlar. O'qituvchi bir nechta so'z aytib, ularning qaysi birida va qayerida n tovushi eshitilayotganini so'raydi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlariga ham n tovushi ishtirok etadigan so'zlar toptiriladi.

Xattaxtaga tarkibida n tovushi bor narsa rasmlari: in, narvon, nok va qiz bola rasmi osib qo'yiladi (qizga *n* tovushli ism tanlanadi: *Nodira.*) O'quvchilarga ularning nomlari ayttiriladi. O'quvchilar aytgan so'zlaridagi n tovushining o'rni savol-javob asosida aniqlanadi. *Nodira* so'zining yozuvda qanday harf bilan yozilishi so'raladi.

5. Dam olish daqiqasi.

6. N n harflarini tanitish. Harf tanishtirilayotganda kitob ochtiriladi. O'quvchilar kitob betining chap va o'ng tomonida berilgan harflarni kuzatadilar. O'qituvchi n tovushi N n harflari bilan yozilishini aytadi. Bosma va yozma n harflarining o'xshash va farqli tomonlari so'rab aniqlanadi. So'ng xattaxtadagi andaza bilan kitobdagi non rasmi ostida berilgan andazani taqqoslab kuzatish topshirig'i beriladi. Kuzatish natijasida har ikkalasi non so'zining andazasi ekan, degan xulosa chiqariladi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini darslikda berilgan *ona* so'zining tovush tahliliga qaratadi. O'qituvchining savollari yordamida o'quvchilar so'zni tahlil qiladilar.

7. Rasm ustida ishlash. Darslikdagi ninachi, quyon va maymun rasmlari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Bolalar, rasmda nimani ko'ryapsiz? Ninachi qanday rangda bo'ladi? Katta-kichikligi-chi?

Ninachi so'zidagi *n* tovushini toping. O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtiradi va yakunlaydi. Xuddi shu tartibdagi suhbat quyon, maymun rasmlari yuzasidan ham o'tkaziladi.

8. Dam olish daqiqasi.

9. So'zlarni o'qish. O'qituvchi darslikdagi so'zlarni avval sidirg'a, so'ngra bo'g'inlab o'qib ko'rsatadi. So'zlarning ma'nosi izohlanadi. O'quvchilar so'zlarni o'qiydilar.

10. Tahliliy-tarkibiy mashqlar. O'qituvchi "Alifbe" da berilgan bir xil bo'g'inli so'zlarni o'qib, ular uchun umumiy bo'lgan bo'g'inlarni ko'rsatadi. Bo'g'inlar nechta va qanday tovushlardan iboratligi savol-javob orqali aniqlanadi.

11. O'quvchilarga bu darsda *n* tovushi va harfini bilib olganliklari aytilib, "Harf lentasi" ga bosma *n* harfi yozdiriladi. Hosil qilingan yangi bilimlar savollar yordamida o'quvchilardan so'ralib, dars yakunlanadi.

7- dars. Kichik n harfini yozish.

1. O'quvchilarga o'qish darsida n tovushi va harfini o'rganganliklari, *non* so'zini tahlil qilganliklari eslatiladi. O'quvchilardan tarkibida n tovushi bo'lgan so'zlar aytish so'raladi, n tovushining o'rni aniqlanadi.

2. Bosma va yozma n harflari qiyoslanadi.

3. O'qituvchi kichik n harfini yozib ko'rsatib, bu harf kichik to'g'ri chiziq va pasti hamda tepasi ilmoqli unsurlarning birikishidan hosil bo'lganligini tushuntiradi.

4. Amaliy mashq. O'quvchilar havoda mashq qilganlaridan so'ng daftarlariga yozadilar. Bunda qo'l harakatini uzmay yozishga alohida e'tibor beriladi.

5. Dam olish daqiqasi.

6. So'zlar yozish va lug'at ishi. O'qituvchi xattaxtaga qo'l harakati, harflarning birikish tartibini tushuntirib, *non*, *ana*, *ona* so'zlarini yozib ko'rsatadi. Bu so'zlar tovush-harf tomondan tahlil qilingach, o'quvchilar daftarlariga yozadilar.

7. Dars yakunida qaysi harfni yozib o'rganganliklari o'quvchilardan so'ralib, dars yakunlanadi.

8- dars. n tovush-harflari (mustahkamlash).

1. O'quvchilardan o'rganilgan harflar so'raladi va n harfi ishtirokida *ona*, *ana*, *non* so'zlari kesma harflar yordamida yozdiriladi va o'qitiladi.

2. "Alifbe" kitobidagi so'zlar o'qitiladi. O'qilgan so'zlar asosida gaplar tuziladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Darslikdagi shodiyonalik tantanasi aks ettirilgan rasmning mazmuni so'zlatiladi. Tuzilgan hikoyaga sarlavha top-

tiriladi. O'quvchilar ayta olmasalar, o'qituvchining o'zi aytadi (Ko'chamizda to'y). Rasmda tasvirlangan narsalardan tarkibida n tovushi bo'lgan so'zlar ayttiriladi. (*Karnay, surnay, nay, nog'ora, Nodir aka, Noila).* O'qituvchi *karnay, surnay, nog'ora* — o'zbek milliy musiqa asboblari ekanligini aytib, yana qanday o'zbek milliy musiqa asboblarini bilasiz? — deb so'raydi. (Doira, dutor, chang.)

5. O'qish mashqlari. O'qituvchi darslikdagi gaplarni o'qib beradi va o'qigan gaplari yuzasidan quyidagi tartibda savol-javob o'tkazadi: Men nechta gap o'qidim? Har bir gap tarkibida nechta so'z bor? Gaplar qanday harf bilan boshlangan? Suhbat yakunida har bir gapning andazasi chiziladi. O'quvchilar navbat bilan gaplarni o'qiydilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. "O'yla va top" o'yini. O'qituvchi ichiga non so'zi yozilgan kvadratni o'quvchilar diqqatiga havola qilib, nechta non so'zini o'qiy olasiz?— deb so'raydi. Topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchi g'olib hisoblanadi. (Jami 12 ta so'z bor.)

8. O'quvchilarning n tovush-harfi yuzasidan hosil qilgan bilimlari savollar yordamida so'raladi.

9- dars. Bosh N harfini yozish.

1. O'quvchilar diqqati ninachi rasmiga jalb qilinadi. Ninachi so'zining talaffuzi ustida ishlanadi, so'z tovush tomondan tahlil qilinadi.

2. O'quvchilarning o'tgan darsdagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida kichik n harfi va *non, ona* so'zlari xattaxtaga yozdiriladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Bosma va yozma bosh N harflari qiyoslanadi.

5. O'qituvchi xattaxtaga bosh N harfini bir necha marta yozib, uning yozilish tartibini tushuntiradi. Bosh N harfi qo'l uzmay bir butun holda yoziladi. N harfini yozishda pastki asosiy chiziqdan yuqoriga qarab pasti ilmoqli chiziq chiziladi. So'ngra pastga qarab katta tayoqcha chiziladi. Tayoqcha tugagan joydan qo'l uzmay yuqoriga qarab ilgak shakli chiziladi.

6. O'quvchilar bosh N harfining yozilishini havoda

mashq qilgach, daftarlariga yozadilar. 5-6 o'quvchi navbat bilan xattaxtada mashq qiladi.

7. Dam olish daqiqasi.

8. So'z va gaplar yozish. O'qituvchi xattaxtaga *Non ana, ona* gapini yozadi. Bunda o'quvchilarning diqqati harflarning ulanishiga, bosh N harfini ulashda yordamchi chiziqchadan foydalanish kerakligiga qaratiladi. Yozilgan gap nechta so'zdan iboratligi, gap qanday harf bilan boshlanganligi, so'zlardagi n tovushining o'rni haqida suhbat o'tkaziladi. O'quvchilar gapni daftarlariga yozadilar.

9. "Ish daftari"dagi shakllar chizdirilib, dars yakunlanadi.

10- dars. Mavzu: i tovush-harfi.

Darsning maqsadi. O'quvchilarga i tovush-harfini o'rgatish.

Darsning jihozi. "Harf xaltasi", "Harf lentasi", nomida i harfi bo'lgan narsalar yoki ularning rasmlari, "Alifbe" varag'iga moslab ishlangan rasm, oynacha.

1. Takrorlash orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash. "Harf tasmasi"dagi harflar o'qitilib, har biri yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Harf terish kartonida o, t, a, n harfli so'zlar tuzdiriladi.

2. O'qituvchi a, o unlilari ishtirok etgan bir necha so'z *(tol, olma, kapalak, ari)* aytadi. O'quvchilar aytilgan so'zda a, o tovushlaridan qaysi biri bo'lsa, o'sha tovushning kesma harfini yuqori ko'taradilar. O'qituvchi turli narsa rasmlarini ko'rsatadi. Qaysi narsa nomida a va o unlisi uchrasa, o'quvchilar shu rasm tagiga a yoki o unlisini qo'yadilar. Har bir qatordan 3-4 o'quvchiga darslikning 11-betidagi gaplar o'qitiladi. Shu tartibda o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. O'qituvchi xattaxtaga turli rangdagi ip rasmlarini osib qo'yadi yoki turli rangdagi iplarning o'zini xattaxta tagligiga terib qo'yadi. O'quvchilar iplarni kuzatib bo'lgach, o'qituvchi ulardan so'raydi: „Bular nima? (Ip.) Iplarning rangi qanaqa ekan? (Qizil, ko'k, qora, oq.) Iplar nima uchun kerak? (Iplar tikish uchun kerak.)"

Shundan keyin "Ip bilan kiyimlar tikiladi" gapi tahlil qilinadi. Gapda nechta so'z borligi, gap qanday harf bilan boshlanishi, oxiriga qanday tinish belgi qo'yilishi so'raladi. Tahlil davomida ip so'zi ajratib olinadi va talaffusi mashq qilinadi. *Ip* so'zi talaffuz qilish orqali nechta bo'g'in va nechta tovushdan tuzilganligi aniqlanadi va xattaxtaga andazasi chizdiriladi. O'quvchilarga bugun i tovushi o'rganilishi va i tovushini talaffuz qilish orqali uning unli yoki undosh ekanligini aniqlashlari aytiladi. Bolalar i-i-i deb aytish bilan uning unli ekanligini aniqlaydilar. Keyin o'qituvchi i tovushi unli tovush, uning talaffuzida og'iz torgina ochiladi (shu o'rinda bolalarga i tovushini oynachalariga qarab talaffuz qilishlari aytiladi). i tovushi talaffuzida havo og'izda to'siqqa uchramagani uchun uni ovozimiz yetguncha talaffuz qila olamiz, tarzida tushuncha beriladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. i tovushi talaffuzi va eshitilishiga oid mashqlar. Xattaxtaga nomida i tovushi bor rasmlar (ilon, kitob, qiz bola yoki o'g'il bola) rasmlari osib qo'yiladi. Qiz va o'g'il bola rasmlariga qarab, ularga tarkibida i tovushi bor ism qo'yishlari (Iqbol, Ali, Nodira kabi) aytiladi. O'quvchilar rasm nomlarining to'g'ri talaffuzini mashq qiladilar. i tovushining shu so'zlardagi o'rnini aniqlaydilar. Bu bilan i tovushining so'zning barcha o'rinlarida kelishini bilib oladilar. O'g'il va qiz bolaga ism qo'yish bilan kishi nomlarining bosh harf bilan yozilishini eslaydilar.

5. I i harflarini tanitish. O'quvchilarga kesma I i harflari ko'rsatiladi va bular i tovushining yozuvdagi ifodasi I i harflari ekani aytiladi. Bosma i harflarining o'xshash va farqli tomonlari so'raladi. Shundan keyin o'qituvchi yozma I i harflarini ko'rsatadi. Bosma i harfini sanoq cho'plari yordamida yasash topshiriladi. Bu harflarni yasash uchun nechta sanoq cho'pi ishlatganliklari so'raladi. Xattaxtadagi so'z andazasiga i harfi yoziladi. O'qituvchi sinf "Harf xaltasi"ga, o'quvchilar o'zlarining „Harf xalta"lariga o, t, a, n harflaridan keyingi o'ringa i harfini qo'yadilar.

6. Rasm asosida hikoya tuzing. O'quvchilar darslikning 12-betidagi "Tabiatni e'zozlaylik" rasmini kuzatadilar. Qiz-

chaga ism tanlaydilar (Iqbol, Iroda). Rasm asosida o'tkaziladigan suhbatda hamma narsalar o'zaro aloqadorligi, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerakligiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi. Rasm yuzasidan 2-3 o'quvchining hikoyasi tinglangach, ularning fikrlari to'ldiriladi va dars yakunlanadi. Hikoya yuzasidan "It xonadonni qo'riqlaydi" gapining andazasi chiziladi, gap tahlil qilinadi. Gapdagi it so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi.

7. Dam olish daqiqasi.

8. O'qituvchi darslikdagi so'zlarni o'qib beradi. So'zlarning ma'nolari izohlanadi. So'ngra o'quvchilar o'qiydilar.

9. Kesma harflar yordamida *in, ini, nina* so'zlari yozdiriladi, i harfining so'zdagi o'rni aniqlanadi.

10. Dars so'ngida tovush-harf yuzasidan savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning darsda olgan bilimlari aniqlanadi. "Harf tasmasi" ga bosma i harfi yozdiriladi.

11- dars. Kichik i harfini yozish.

1. Daftardagi rasm asosida gap tuzdiriladi. Gapni va so'zni tahlil qilish davomida i tovushi ajratib olinadi.

2. i harfining bosma va yozma shakllari solishtiriladi, yozma shakli nechta unsurdan tuzilganini aniqlash topshiriladi. O'quvchilar i harfi bitta ilmoqli chiziq va nuqtadan iboratligini aytadilar.

3. i harfini yozish. O'qituvchi doskaga bir nechta i harfini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar bu harfni havoda mashq qiladilar. Keyin daftardagi namuna asosida bir qator i harfini nuqtalar ustidan yurgizib yozadilar. Harflar orasidagi masofa teng bo'lishi kerakligi ta'kidlab turiladi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. Bo'g'in va so'zlar yozish. O'qituvchi xāttāxtāgā *ti, ni, no, na* bo'g'inlarini yozib ko'rsatadi. O'quvchilardan shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar aytish so'raladi *(man-ti, ni-na, bi-no, o-na).*

6. O'quvchilar ish daftaridagi so'zlarni avval ichda, so'ngra ovoz chiqarib o'qiydilar. O'qituvchi shu so'zlarni xāttāxtāgā yozib ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchining yozish jarayonini kuzatgach daftarlariga yozadilar.

7. "Ish daftari" da nuqtalar bilan berilgan chiziqlar chizdiriladi, i shakliga o'xshash chiziqlar aniqlanadi.

12- dars. i tovushi va I,i harflari (mustahkamlash).

1. O'tilganlarni takrorlash asosida o'quvchilarning bilimini mustahkamlash. o, a, n, i tovushlarining talaffuziga oid mashqlar o'tkaziladi. O'qituvchi aytgan *(olma, tol, ayiq, non, ip)* so'zlaridagi o'rganilgan harflarni o'quvchilar o'zlarining harf xaltalariga qo'yadilar. Bir o'quvchi uni sinf "Harf xaltasi" da bajaradi. "Harf xaltasi" da katta va kichik harflar aralash holda bo'ladi. (o, t, a, A, N, O, o, i, T.) Shuning uchun endigi topshiriq katta va kichik harflarini alohida qatorga terish bo'ladi.

2. "Harf xaltasi"ga yozilgan o, a, n, u harflari o'qitiladi. Shu harflar ichidan o'tgan darsda o'rgangan harflarini topishlari aytiladi. O'quvchilar i tovushi va harfi bilan tanishganliklarini aytgach, i tovushiga xos xususiyatlar savol-javob asosida eslatiladi. O'tgan darsda andazaga qarab qanday so'zlar tuzganliklari *(iqbol, ari)* va uni tahlil qilganliklari so'raladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Andaza bilan ishlash. Xattaxtaga it rasmi osib qo'yiladi. It haqida qisqacha suhbat o'tkazilib, it so'zi bo'g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi. Andazasi xattaxtaga chizdirilib, asosiy diqqat i tovushiga, uning talaffuziga, andazadagi o'rniga qaratiladi. T tovushi undosh bo'lgani uchun (o'quvchilarga talaffuz qilish orqali aniqlanadi), u ko'k doiracha bilan belgilatiladi. So'ngra t tovushining talaffuzi, andazadagi o'rni aytiladi. Xattaxtadagi andaza ichiga i, t harflari qo'yilib, so'z o'qitiladi.

O'qituvchi. — Bolalar, rasmda nimalarni ko'ryapsiz?

O'quvchilar. — Rasmda bolalarni, inni, qushlarni, o'tlarni va daraxtlarni ko'ryapmiz.

O'qituvchi. — Bolalar nima qilyaptilar? Ularga i tovushi bilan boshlanadigan ismlar qo'ying.

1- o'quvchi. — Ismat rogatkasiga tosh qo'yib, qushlarga otdi.

2- o'quvchi. Iroda bilan Ibrohim Ismatning qilgan ishidan xafa bo'ldilar.

3- o'quvchi. Qushlarga tosh otib ozor berish kerak emas, — deb aytdilar.

2-3 o'quvchi hikoyani so'zlab beradi. O'qituvchi ularning hikoyalarini yakunlaydi: Tabiat juda go'zal. Hamma yoq ko'm-ko'k. Osmonda qushlar parvoz qilmoqdalar. Iroda bilan Ibrohim qushlar qishda sovuqda qolmasin deb in yasadilar. Ular inni daraxtga o'rnatish uchun kelayotganlarida Ismatni ko'rib qoldilar. U rogatkasiga tosh qo'yib qushlarga otmoqda edi. Iroda bilan Ibrohim Ismatning qilgan ishidan xafa bo'ldilar. Qushlar bizning do'stimiz! Qushlarga tosh otib ozor berish kerak emas,— deb, uni uyaltirdilar. Ismat qilgan ishiga pushaymon bo'ldi.

6. Andaza bilan ishlash. Tuzilgan hikoyadan rasm tagidagi andazaga mos gap ajratib olinadi.

Qushlar bizning do'stimiz.

Quyidagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

Gap tarkibida nechta so'z bor? Gap qanday harf bilan boshlanadi? Gap oxiriga qanday belgi qo'yilgan? Gap tarkibidagi qaysi so'zlarda i tovushi qatnashgan?

7. Darslikdagi so'zlarni o'qituvchi o'qib beradi. So'ngra o'quvchilar o'qiydilar.

8. O'rganilgan materiallar o'quvchilarga gapirtiriladi. Ularning fikrlari umumlashtirilib, dars yakunlanadi.

13- dars. Bosh I harfini yozish.

1. Rasm asosida gap tuzilib, gapdagi *in* so'zi ajratib olinadi. 2-3 o'quvchi xattaxtaga *in* so'zini yozadi. Bu so'z tovush-harf tomondan tahlil qilinadi.

2. O'tgan darsda o'rganilgan kichik i harfi xattaxtaga yozdiriladi.

3. O'qituvchi xattaxtaga katta I harfini yozib ko'rsatadi. Harf grafik tahlil qilinadi. Bosh I ikki qismdan iboratligi ko'rsatiladi. Bu harfning yozilishi murakkabligi tufayli o'qituvchi xattaxtada bir necha marta yozib ko'rsatadi.

4. Amaliy mashq. O'quvchilar daftarlariga bosh I harfidan ikki qator yozadilar.

5. So'z yozish va lug'at ishi. O'qituvchi xattaxtaga *In* so'zini yozib ko'rsatadi. 4-5 o'quvchi xattaxtada mashq qildiriladi. O'quvchilar daftarlariga *In* so'zini yozadilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. Nuqtalar ustidan chizdiriladi va undagi bosh I harfi unsuriga o'xshash chiziqlar aniqlanadi. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish bilan dars yakunlanadi.

14- dars. l tovushi va L l harflari.

Darsning maqsadi. O'quvchilarni L tovushi va I l harflari bilan tanishtirish, talaffuzini o'rgatish.

Darsning jihozi. "Harf xaltasi", "Harf tasmasi", kesma harflar, "Alifbe" varag'iga moslab ishlangan rasmlar, nomida l tovushi bor narsa rasmlari.

1. Takrorlash. O'rganilgan harflar "Harf tasmasi" dan o'qitiladi. Unli va undosh tovushlar haqida savol-javob o'tkaziladi. Kesma harflardan bo'g'in, so'z tuzdirib o'qitiladi.

2. So'zdan l tovushini ajratib olish. O'quvchilar diqqati xattaxtaga osib qo'yilgan lola rasmiga jalb qilinadi. O'qituvchi *lola* so'zini butunicha va bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qiladi. O'quvchilar birgalikda va yakka tartibda bu so'zni takrorlaydilar. Xattaxtaga necha bo'g'indan tuzilganini ifodalab, lola so'zining andazasini chizadilar. Shundan keyin har bir bo'g'inning nechta tovushdan iboratligini aniqlab, uning andazasini ham chizadilar.

O'qituvchi shu so'zni qayta talaffuz qilib, o'quvchilardan shu so'zdagi ajratib aytilayotgan tovushni topishlarini aytadi. O'quvchilar ikkala bo'g'inda ham l tovushi ajratib aytilganini aniqlashgach, bugungi darsda l tovushi o'rganilishini e'lon qiladi. Keyingi tovushlarni bilish-bilmasliklari o'quvchilarning o'zlariga aniqlatiladi. O'quvchilar *lola* so'zini qayta aytib ko'rish orqali o va a harflari bilan oldingi darslarda tanishganliklarini, ularni yozishni bilishliklarini aytib, andazadagi o'ringa o va a harflarini yozadilar.

Shundan keyin l tovushi va unga xos xususiyatlar haqida tushuntirish beriladi: l tovushini aytganingizda og'zingiz ochilib (o'quvchilar oynachalariga qarab l tovushini talaffuz qiladilar), tilingiz yuqori milklarga tegadi, l tovushini cho'zib aytib bo'lmaydi.

3. L, l harfini tanitish. O'quvchilar kitob varag'ining yuqori qismidagi L, l harflarini ko'radilar. Darslikda berilgan *Lola* so'zining tahlili kuzatiladi. So'z nechta bo'g'in, nechta tovushdan iboratligi, bu tovushlar qaysi harflar bilan ko'rsatilganligi so'raladi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. Bo'g'in o'qish, l harfli bo'g'inlarni dastlab o'qituvchi kitobdan o'qib beradi. Keyin o'quvchilarga navbat bilan o'qitadi. Shu bo'g'inlardan so'zlar tuzish topshirig'ini beradi. O'quvchilar *lola, lagan, limon, Ali* kabi so'zlarni aytadilar. O'quvchilar qiynalsalar, o'qituvchi nomida shunday bo'g'inlar bor bo'lgan rasmlarni ko'rsatadi (bunday rasmlar oldindan tayyorlab qo'yilishi va darsning shu bosqichida o'quvchilarga ko'rsatilishi lozim) va shu so'zning qaysi o'rnida o'qilgan bo'g'in kelayotganini aniqlatadi.

6. Rasm ustida ishlash. O'quvchilar darslikning 14-betidagi mazmunli rasmni kuzatar ekanlar, ona uchun dunyoda farzanddan aziz kishi yo'qligini, farzand uchun, uning baxtli kelajagi uchun har qanday to'siqlarni yengishga tayyorligini, faqat insonlargina emas, hatto qushlar, jamiki jonzotlar o'z bolalari uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklari haqidagi xulosaga keladilar. *Ona-yu bola — gulu lola* maqoli yodlatiladi.

7. Tahliliy-tarkibiy mashq. O'qituvchi kesma harflar yordamida *Noila* so'zini yozib, shu so'z tarkibidagi harflar ishtirokida yana qanday so'zlar hosil qilish mumkinligini so'raydi. Topilgan so'zlar kesma harflar yordamida yoziladi *(ol, il, non, ilon)*. So'z va gaplarni o'qish. Ustunchalardagi so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi. Bu so'zlar bosma harflar bilan xattaxtaga yozib qo'yilishi ham mumkin:

Ali, ana, Lola.
Ona, ana Lola.
Noila, ana nina.

5-6 o'quvchi darslikdagi so'z va gaplarni ovoz chiqarib o'qiydi.

8. "So'z tuzish" o'yini. Xattaxtaga yozma harflar bilan *oila, ona, ana, lola, Lola, Ali* so'zlari yozib qo'yiladi.

O'quvchilar kesma bo'g'inlar yordamida shu so'zlarni yozadilar. l tovushi so'zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar.

9. O'qituvchi. — Bugun qaysi tovushni o'rgandingiz?

O'quvchi. — l tovushini o'rgandik.

O'qituvchi. — l tovushini talaffuz qilib ko'ring-chi.

O'quvchi: l, l, l

O'qituvchi. l tovushini cho'zib aytib bo'lyaptimi?

O'quvchi. — Yo'q.

O'qituvchi. — Cho'zib aytib bo'lmaydigan tovushlarni qanday tovushga kiritamiz?

O'quvchi. — Undosh tovushga kiritamiz.

O'qituvchi. — l undosh tovushini "Harf tasmasi" ning 2-qismiga joylashtiramiz. L harfining o'rni tasmadan ko'rsatilib, bosma harf bilan yozishlari aytiladi.

15-dars. Kichik l harfini yozish.

1. *Lagan* so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi, so'z andazasi chiziladi.

2. Xattaxtada l harfining bosma va yozma shakllari ko'rsatilib, qiyoslanadi.

3. O'qituvchi kichik l harfini yozib ko'rsatadi. Bu harf tepasi halqali va pasti ilmoqli ikki unsurning qo'shilishidan hosil bo'lganligi tushuntiriladi.

4. O'quvchilar l harfini havoda yozib, mashq qiladilar. Keyin namuna asosida daftarlariga yozadilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. So'z yozish va lug'at ishi. O'qituvchi xattaxtaga *il* so'zini yozib, l harfining o'zidan oldingi harfga qo'shilishini tushuntiradi. *Il* so'zining ma'nosi izohlanadi. *(Inni il, ko'ylakni il).* Xuddi shu tartibda *lola* so'zining imlosi va ma'nosi tushuntiriladi. So'zni qo'l uzmay yozishga alohida e'tibor beriladi. 2-3 o'quvchi xattaxtaga chiqib, *lo, la* bo'g'inlarini, *il, lola* so'zlarini yozadilar.

7. O'quvchilar "Yozuv daftari" dagi so'zlarni kuzatadilar, ovoz chiqarib o'qiydilar. Xattaxtadagi va daftardagi namunaga qarab *il, lola* so'zlarini yozadilar.

8. Dam olish daqiqasi.

9. l harfiga o'xshash unsurlar toptiriladi. O'quvchilarning darsdagi faoliyati baholanib, dars yakunlanadi.

16- dars. l L tovush-harfini mustahkamlash.

1. Takrorlash. O'quvchilarga o'tgan darsda o'rganilgan so'z va gaplar o'qitiladi. Kesma harflar yordamida *lo, la, li* bo'g'inlari yozdiriladi. Bolalardan shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar tuzish so'raladi. O'quvchilar *lola, bola, limon, xola* singari so'zlarni aytadilar.

2. Laylak rasmi ko'rsatilib, nomini aytish so'raladi. Bu so'z tovush tomondan tahlil qilinib, so'z andazasi chizdiriladi. O'qituvchi *laylak* so'zidagi o'rganilgan tovush-harflarni katakchalar o'rniga qo'yishni topshiradi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Rasm ustida ishlash. O'quvchilar 15- betdagi rasmni kuzatadilar. Uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Rasmda qayer tasvirlangan? Unda nimalarni ko'ryapsiz? Bolalar nima qilyaptilar? kabi savollar beriladi. O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

5. Gaplarni o'qish. O'qituvchi darslikdagi gaplarni o'qiydi. So'ngra o'quvchilar navbat bilan o'qiydilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. "O'qiy olasizmi?" o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi xattaxtaga karton qog'ozga yozilgan *ola, oila, Noila* so'zlarini osib qo'yadi. 5-6 o'quvchiga so'z o'qitilgach, so'zlar bo'g'inlarga bo'linib, l harfining o'rni ko'rsatiladi.

8. So'z tarkibidagi o'rganilgan tovush va harflarni aniqlash. O'qituvchi so'zlarni aniq va ravon talaffuz qiladi: *ilgak, odob, til, daftar.* O'quvchilar so'z tarkibidagi o'rganilgan tovushlarni (i, l, o, a, t) va bo'g'inlarni aytadilar.

9. Dars yakunida o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirganliklari so'rab aniqlanadi.

17- dars. Bosh L harfini yozish.

1. Rasm va so'z tahlili.

2. L harfi ko'rsatilib, grafik tahlil qilinadi.

3. O'qituvchining namunasi. O'qituvchi bosma shakldagi katta L harfini yozib ko'rsatadi. Ruchka uchi keng chiziqlar o'rtasiga qo'yilib, qiyalikka rioya qilgan holda, pastki chiziqqa tushiriladi. Pastki chiziq ustida halqacha hosil qilinadi.

4. Amaliy mashg'ulot. O'quvchilar havoda mashq qilganlaridan so'ng, yozuv daftariga L harfini yozadilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. Gap yozish. O'qituvchi xattaxtaga *Lola, ana Noila* gapini yozadi. O'quvchilar gapni o'qiydilar. O'qituvchi gap yozilishini uzohlaydi: Gap bosh harf bilan boshlanadi. Bu gapdagi *Lola, Noila* so'zlari qizlarning ismlari bo'lganligi uchun bosh harf bilan yoziladi. Gapdagi har bir so'z alohida-alohida yoziladi. Gap tugagandan so'ng nuqta qo'yiladi.

7. Amaliy mashq. O'quvchilar xattaxtadagi "Yozuv daftar"laridagi gapni o'qib, qiyoslaydilar va yozishni mashq qiladilar.

8. So'zlarni o'qishga o'rgatish mashqi. O'qituvchi kartonga yozilgan *Ali, oila* so'zlarini xattaxtaga ilib, diqqat bilan o'qishni va har bir so'z nechta harfdan iboratligini aniqlashni vazifa qilib topshiradi.

9. O'quvchilarning ishlari o'qitish orqali tekshiriladi.

10. Hoshiyada berilgan shakl chizdiriladi, dars yakunlanadi.

18- dars. m tovushi va M m harflari.

Darsning maqsadi. O'quvchilarga *m* tovushi va M, m harflarini o'rgatish, m harfli so'zlarni, bo'g'inlarni o'qishni o'rgatish.

Darsning jihozi. "Harf xaltasi", "Harf tasmasi","Bo'g'inlar jadvali", nomida m tovushi bo'lgan narsa rasmlari, kesma harflar. "Alifbe" varag'iga moslab ishlangan ko'rgazmali qurol.

1. O'quvchilar bilimini mustahkamlash. O'quvchilarga „Harf tasmasi"dagi unli va undosh harflar o'qitiladi. Unli va undosh harflarning farqi haqida savol-javob o'tkaziladi.

"Qaysi harf ortiqcha" o'yini tashkil etiladi. O'qituvchi xattaxta tagligiga a, o, i, n kesma harflarini terib qo'yadi. Harflar orasida bitta n undoshi ortiqcha ekanini o'quvchilar aniqlaydilar.

2. So'zdan m harfini ajratish. Xattaxtaga mushuk rasmi osib qo'yiladi. O'quvchilar rasmdagi narsa nomini aytadilar. *Mushuk* so'zini bir necha marta talaffuz qilish orqali uning necha bo'g'inli so'z ekanini aniqlash o'quvchilarga topshiriladi. Ular ikki bo'g'inli so'z ekanini aytadilar va xattaxtada ko'rsatadilar. Keyin necha tovushdan tuzilganligi aniqlanadi va tovushlar soni ifodalangan andaza xattaxtaga chizdiriladi. Bunda ham bo'g'inlar soni ko'rsatiladi.

O'qituvchi. — So'zni qayta aytaman. Siz diqqat bilan eshiting. Qaysi tovushni ajratib aytayotganimni aniqlaysiz: *m - m - mushuk.*

O'quvchi. — m tovushini ajratib aytdingiz.

O'qituvchi. — To'g'ri, m tovushini ajratib aytdim. Bugun m tovushi bilan tanishasiz. Endi *mushuk* so'zini shivirlab aytib ko'rish orqali m tovushining shu so'zdagi o'rnini toping-chi?

O'quvchi. —m— so'zning boshida kelyapti.

So'ng m tovushi o'quvchilarga alohida talaffuz qildiriladi, m tovushi talaffuzidagi lablar holati va harakati tushuntiriladi: m tovushini talaffuz qilayotganimizda lablarimiz birbiriga tegadi, olingan havo lablarni ochib chiqadi. Olingan havoning silliq chiqib ketishiga lablarimiz to'sqinlik qiladi. Havo to'siqqa uchrab chiqsa, qanday tovushlar hosil bo'ladi? Undosh tovushlar hosil bo'ladi. m qanday tovush ekan? m— undosh tovush ekan.

3. M — tovushini farqlash. O'qituvchi *tom, bog', kuchuk, sigir, rom* so'zlarini aytadi. O'quvchilar qaysi so'zda m tovushini eshitsalar, qo'llarini ko'taradilar, m tovushining qaysi o'rinda kelganligini aytadilar. O'quvchilarning o'zlariga ham m tovushli so'zlardan misollar keltirish topshirig'i beriladi. Bolalarning nomlaridan ham aytishlari mumkinligi aytiladi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. M, m harflarini tanitish. O'quvchilarga kitoblarni ochtiriladi. Ular kitob varag'ining o'ng tomonida berilgan M, m harflarini kuzatadilar. O'qituvchining yo'llovchi savollari asosida o'quvchilar M, m harflarining katta va kichik shakllarini aytadilar. Kesma m harfini o'qituvchi sinf "Harf xaltasi" ga, o'quvchilar o'zlarining harf xaltalariga joylaydilar.

Bosma M harfining ishlatilishi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

O'qituvchi. — Qanday so'zlar bosh harf bilan yoziladi?

O'quvchi. — Kishilarning nomlari bosh harf bilan yoziladi.

Oqituvchi. — Sinfingizda kimlarning ismi M harfi bilan boshlanadi?

O'quvchi. — *Marhamat, Mamlakat, Muxtor, Mehri.*

"Alifbe" kitobidan olma so'zining tahlili andaza asosida o'quvchilarga so'zlatiladi. M tovush-harfining o'rni ko'rsatiladi.

6. Rasm ustida ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan qanday ertaklarni bilishlarini, uchar gilam, yalmog'iz kampir haqidagi qanday multfilm, filmlar ko'rganliklarini so'rab aniqlaydi. ("Senimi, shoshmay tur" multfilmi, "Uchar gilam" ertagi.) So'ngra *gilam, yalmog'iz kampir, kamon, mezana, minora* so'zlarining talaffuzi va ma'nosi ustida ishlanadi. So'zlar tarkibidagi m tovushining o'rni aniqlanadi.

"Sirli kataklar" o'yini. O'qituvchi ko'rgazmani ko'rsatib, kerakli harflarni qo'yib, so'zlarni o'qishni aytadi.

7. Bo'g'in o'qish. O'qituvchi bo'g'inlarni o'qish uchun undoshdan keyin ovozni to'xtatmasdan keyingi unlini qo'shib aytish kerakligini eslatadi. Bo'g'inlar jadvalidagi m harfli bo'g'inlarni o'qib namuna ko'rsatadi. O'quvchilarga „Harf terish kartoni" dagi kesma harflardan shu bo'g'inlar tuzdiriladi, so'ng shu bo'g'inlarga bo'g'in qo'shib so'z hosil qilishlari aytiladi. Bunda xattaxtaga nomida shunday bo'g'inlari bor narsa rasmlari osib qo'yilsa, bolalar qiynalmaydilar. (Masalan: mashina, mushuk, mix, qiz yoki o'g'il bola rasmi.)

8. O'quvchilar darsda o'rgangan bilimlari va hammasi bo'lib nechta tovush-harf bilan tanishganliklari so'raladi. Ularning fikrlari umumlashtirilib, darsdagi faoliyatlari umumiy baholanib, dars yakunlanadi.

19- dars. Kichik m harfini yozish.

1. O'quvchilar diqqatiga kesma harflarda yozilgan *ota, ona, til* so'zlari havola qilinib, shu so'zlarni yozma shaklda yozish aytiladi.

2. Olma rasmi ko'rsatilib, gap tuzish topshirig'i beriladi. O'quvchilar tuzgan gaplardan *olma* so'zi ajratib olinib, tovush tomondan tahlil qilinadi. So'zlar nechta bo'g'in va tovushdan tuzilganligi aniqlangach, uning andazasi chizdiriladi. Bir o'quvchi o'z andazasidan m tovushining o'rnini belgilaydi, m tovushiga xos xususiyatlar savollar yordamida o'quvchilarga eslatiladi. So'z andazasidagi boshqa katakchalar ham to'ldiriladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Bosma va yozma kichik m harflari qiyoslanadi. Yozma m harfi grafik tahlil qilinadi.

5. O'qituvchining namunasi. O'qituvchi kichik m harfi chiziqlar orasida qo'l harakati uzilmay yozilishini ta'kidlab, bu harfni yozib ko'rsatadi. O'quvchilar m harfining yozilishini havoda mashq qilgach, daftardagi va xattaxtadagi namunaga qarab m harfini yozadilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. O'quvchilar kesma harflarga **ma, mo, mi** bo'g'inlarini yozadilar. Shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar topadilar. O'qituvchi xattaxtada **ma, mo, mi** bo'g'inlarini yozib, **m harfining** ulanishini tushuntiradi. O'quvchilar xattaxtaga chiqarilib, *mana, olma* so'zlari yozdiriladi. Qolgan o'quvchilar so'zlarning yozilishini kuzatadilar.

8. "Yozuv daftari" dagi bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi. So'ngra o'quvchilar namunaga qarab yozadilar.

9. Dam olish daqiqasi.

10. Eshitib yozish. O'qituvchi bir nechta tovushlarni aytadi, o'quvchilar tovush ifodalaydigan kichik harflarni yozadilar: a, i , n, l.

11. Hoshiya ustidan chizdiriladi. O'quvchilarning darsda olgan bilimlari savollar yordamida aniqlanib, dars yakunlanadi.

20- dars. M m harflarini mustahkamlash.

1. O'quvchilar bilan unli va undosh tovushlar, harflar haqida savol-javob o'tkaziladi. "Qaysi harf" o'yini tashkil etiladi. O'qituvchi "Harf terish kartoni" ga o'rganilgan harflarni aralash qilib terib, yarmini qog'oz tasma bilan berkitib qo'yadi. O'quvchilar qaysi harf ekanligini aytganlaridan keyin tasma olinadi. So'ng M m harfi ishtirok etgan so'zni aytish talab qilinadi.

M tovushi yuzasidan savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning m tovushi haqidagi bilimlari aniqlanadi.

2. So'z tuzish va uni o'qish. O'qituvchi *lo, la, ma, na, li, mon, A, li* bo'g'inlaridan so'z tuzish topshirig'ini beradi. O'quvchilar *Lola, Ali* kabi so'zlarni tuzadilar va harflar bilan „Harf terish kartoni" da shu so'zlarni yozadilar.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Darslikning 17- betidagi "Mergan bobo" rasmi ustida suhbat qilinadi. O'zbek xalqining tarixi, milliy xalq o'yinlari, musobaqalari haqida to'xtalinadi. Rasmdagi kishiga (Mannon), otga (Jiyron) nom qo'yiladi.

5. So'zlarni o'qish. O'qituvchi darslikdagi so'zlarni o'qib ko'rsatadi. So'ngra o'quvchilar navbatma-navbat o'qiydilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. Gaplarni o'qish. O'qituvchi birinchi gapni namuna sifatida o'qib ko'rsatadi. Qolgan gaplarni o'quvchilar o'qiydilar.

8. "So'z top" o'yini. O'qituvchi darslikda tarqoq holda berilgan bo'g'inlardan so'zlar hosil qilishni topshiradi.

Bo'g'inlarni joy-joyiga qo'yib, so'zlarni to'g'ri o'qigan o'quvchi o'yin g'olibi bo'ladi.

9. Darsda o'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkazilib, dars yakunlanadi.

21- dars. Bosh M harfini yozish.

1. Mashina rasmi asosida hikoya tuzish, m tovushining o'rnini aniqlash. M tovushi so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida kelgan hollarga so'zlar topish.

2. O'quvchilar bosma va yozma M harfini qiyoslaydilar, qanday qismlardan iborat ekanligini aniqlaydilar.

3. O'qituvchi bir necha katta M harfini yozadi, quyidagicha izohlaydi. Yozma katta M harfi pastki yozuv chizig'ining sal yuqorisidan ilmoqcha hosil qilinib, yozuv chizig'idan yuqoriga chiqariladi. Shu nuqtadan pastga qarab 2 ta katta ilmoq shakli chiziladi.

4. Amaliy mashq. O'quvchilar daftarlariga katta M harfini yozadilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. Gap yozish. *Mannon, olma ol* gapi o'qitiladi, tarkibidagi so'zlar soni, gap qanday harf bilan boshlanganligi, gap oxiriga qaysi ishora qo'yilganligi so'raladi. O'quvchilar gapni izohlab yozadilar. Yozilganlar ko'rib chiqiladi.

7. Takrorlash. Katta A, N va M harflari qiyoslanadi. Namunaga qarab bir qator yoziladi. Bunda harflarning qiyaligiga, katta-kichikligiga, orasidagi masofaga e'tibor beriladi.

8. Hoshiya ustidan chizdiriladi. Darsda o'rganilgan gaplar eslatilib, dars yakunlanadi.

22- dars. U u harflari.

Darsning maqsadi. O'quvchilarga u tovushi va U u harflarini o'rgatish.

Darsning jihozi. "Harf xaltasi", "Harf tasmasi", nomida u tovushi bo'lgan narsa rasmlari, "Alifbe" varag'iga moslab ishlangan ko'rgazmali qurol, oynacha.

1.Takrorlash. O'qituvchining talabi bilan o'quvchilar o'rganilgan harflarni ko'rsatadilar.

2. Rasm mazmunini aytib berish. O'quvchilar 18- betdagi mazmunli rasmni mustaqil kuzatib, uning mazmunini hikoya qiladilar, tuzgan hikoyalariga sarlavha topadilar.

3. So'zdan u tovushini ajratish. O'quvchilar tuzgan hikoyadan *Usmon uzum uzdi* gapi tahlil uchun tanlanadi, gapdan *uzum* so'zi ajratib olinadi. Uzum so'zi ikki bo'g'in, to'rt tovushdan tuzilgani aniqlanib, so'z andazasi xattaxtaga chiziladi. O'qituvchi -u-u-u-zum tarzida aytib, qaysi tovushni ajratib talaffuz qilayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar u tovushining ajratib aytilayotganini topishgach, bugun u tovushi o'rganilishi aytiladi. So'ng u tovushining talaffuzi aytiladi: lablar oldinga cho'chchayib dumaloq shaklga keladi. Havo og'izda to'siqqa uchramaydi. Shuning uchun bu unli tovush hisoblanadi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. U tovushini farqlash mashqi. O'qituvchi u tovushi ishtirok etadigan so'zlardan aytadi (*uy, uzum, uzuk, stul*). O'quvchilar so'zdagi u tovushini eshitganlarida chapak chaladilar.

6. U u harflarini tanitish. O'quvchilar kitob varag'ining yuqori qismidan u tovushini ifodalovchi harfni topadilar. Katta va kichik shakllarning yozilishi haqida savol-javob o'tkaziladi. O'qituvchi sinf harf xaltasi, o'quvchilar esa o'zlarining harf xaltalariga kesma u harfini joylaydilar.

7. Bo'g'in jadvali tuzdirilib, o'qitiladi. Shu bo'g'inlardan so'zlar tuzdiriladi.

8. So'zlarni o'qish. O'qituvchi "Harf terish kartoni" da kesma harflar bilan *un, uni, unli, ula* so'zlarini tuzadi va ularni o'quvchilarga kitobdan o'qitadi.

9. Dam olish daqiqasi.

10. Rasmlar ustida ishlash. O'qituvchi darslikda berilgan parrandalar rasmini diqqat bilan kuzatishni va nomlarini aytishni talab qiladi. Parrandalar nomlari tovush tomohdan tahlil qilinadi.

11. Darsda u tovush-harfi o'rganilganligi, so'zlar o'qilganligi, rasmlar ustida ishlaganliklari aytilib, dars yakunlanadi.

23- dars. Kichik u harfini yozish.

1. Takrorlash. O'quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida xattaxtaga kichik l, i, m harflari yozdiriladi.

2 O'quvchilarga bosma va yozma u harflari bilan o'qish darsida tanishganliklari aytilib, kichik bosma u harfi bilan yozma shaklini qiyoslash topshiriladi.

3. Kichik u harfining grafik tahlili. u harfi ikki tik chiziqli unsurdan tuzilganligi, bu unsurlarni o'tgan darsda yozib o'rganganliklari aytiladi. O'qituvchi xattaxtaga u harfini yozib ko'rsatadi.

4. Amaliy mashq. O'quvchilar u harfining yozilishini havoda mashq qilib, so'ngra namunaga qarab daftarlariga yozadilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. So'z va lug'at ishi. O'qituvchi xattaxtaga *un, unli* so'zlarini yozib, o'quvchilarga o'qitadi. So'zlarning ma'nosi izohlanadi. O'quvchilar so'zlarni daftarlariga yozadilar.

7. "So'z top" o'yini. O'qituvchi kartonga yozilgan *tu, ol, ni* bo'g'inlarini o'quvchilar diqqatiga havola qilib, o'rganilgan bo'g'inlar yordamida so'zlar hosil qilishni aytadi. So'zlar xattaxtaga va daftarga yozdirilib, og'zaki gaplar tuzdiriladi.

8. Hoshiya ustidan chizdiriladi, dars umumlashtiriladi.

24- dars. u tovushi va U u harflari (mustahkamlash).

1. O'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash. O'quvchilarga kesma harflar bilan bo'g'in tuzdirilib o'qitiladi. *un, nu, ul, lu* bo'g'inlarini taqqoslab, farqi ayttiriladi. U tovushli so'zlar toptiriladi.

2. Darslikdan o'qish. O'quvchilar darslikning 18- betida berilgan so'zlarni o'qiydilar.

3. Rasm asosida hikoya tuzish. O'quvchilarga uyasida bolalari bilan tulki va inida tuxumlarini bosib yotgan qush tasviri asosida savollar yordamida hikoya tuzdiriladi. Taxminan savollar va tuzilgan hikoya quyidagicha boshlanishi mumkin: "Tulkining uyasi qanday ekan? Tulki bolalari nima qilyapti? Uyasini nimalardan quradi? Qush bolalarini qanday boqadi?

Tulkining uyasi pana joyda bo'ladi. Uning o'zi yerni kovlab uya qiladi. Tulki ham bolalarini yaxshi ko'radi. Shuning uchun u doimo sergak....

4. So'zlarni o'qish. Darslikda berilgan so'zlar o'qilib, ma'nolari izohlanadi. O'quvchilar so'zlarni o'qiydilar.

5. Unli harflarning talaffuzi va eshitilishiga oid mashqlar. O'qituvchi yoki biror o'quvchi *chumoli, mushuk, tovuq, jo'ja* so'zlarini aytadi. O'quvchilar so'zlarni eshitish orqali undagi unli tovushlarni aniqlaydilar va shu unlilarni kesma harflar bilan ko'rsatadilar.

6. u unlisini ajratish. Yuqoridagi so'zlar qayta aytib turiladi. O'quvchilar u tovushi bor so'zni aniqlaydilar va uning unli tovushga xos xususiyatlarini aytadilar.

7. Andaza asosida tovush tahlili; chumoli, mushuk rasmi va andazasi asosida *chumoli, mushuk* so'zlari tovush jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil oldingi darslardagi xarakterda bo'ladi. Asosiy diqqat mustahkamlanayotgan *u* tovushiga qaratiladi.

8. Gap tuzish. *Chumoli, mushuk* so'zlari ishtirokida o'quvchilarga gap tuzdiriladi. Tuzilgan gaplardan yaxshisi tanlab olinib, tahlil qilinadi.

9. Dars yakunlanadi.

25- dars. Bosh U harfini yozish.

1. O'quvchilarga bosma shaklda yozilgan *Alim, Omon, unumli, alla* so'zlari tarqatilib, yozma shaklda yozish aytiladi.

2. Bosma va yozma U harflari qiyoslanadi va grafik tahlil qilinadi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. O'quvchi xattaxtaga katta U harfini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar havoda mashq qilganlaridan keyin daftarlaridagi namuna asosida U harfini yozadilar.

5. Gaplar yozish. O'qituvchi xattaxtaga U nima? gapini yozib, so'roq belgisi va uning qo'yilishi haqida tushuncha beradi. O'quvchilar daftarlariga gaplarni yozadilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. Eshitib yozish. O'qituvchi L, N, A, I, M tovushlarini aytib, bosma shakllarini yozishni topshiradi. Ish natijasi xattaxtaga yozish bilan tekshiriladi.

8. "Yozuv daftari" dagi hoshiyalar ustidan chizdiriladi. Darsda o'rganilganlar savol-javob orqali yakunlanadi.

26- dars. d tovushi va D d harflari.

1. O'quvchilar bilimini mustahkamlash. Aralash qo'yilgan kesma harflar orasidan unli harflarni alohida, undosh harflarni alohida qatorga terish, ularni to'g'ri talaffuz etishga tayyorlanish topshirig'i beriladi. Undosh harflar ishtirok etgan so'zlar toptiriladi.

2. Darslikning 20- betidagi „Dor o'yini" rasmi asosida hikoya tuzdiriladi. O'quvchilar hikoyasini eshitib, o'qituvchi hikoyani yakunlaydi. Dor o'zbek xalqining qadimiy milliy o'yinlaridan hisoblanadi. Bayram kunlarida, xursandchilik kunlarida katta maydonlarga dor o'rnatiladi. Dovyurak, epchil dorbozlar o'z hunarlarini namoyish qiladilar.

3. d tovushini farqlash. O'qituvchi bir necha so'z aytadi: *dala, dada, Odil, eshik, Dildor, undosh, unli, daftar* kabi. O'quvchilar d tovushli so'zlar aytilganda chapak chaladilar. Keyin faqat d tovushli so'zlar aytilganda d tovushining so'zdagi o'rni aniqlanadi, d tovushli so'zlar o'quvchilarga talaffuz qildiriladi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. D d harflari bilan tanishtirish. Siz d tovushi bilan tanishdingiz. D tovushini va d tovushli so'zlarni talaffuz qildingiz. Endi kitobingizni oching. Kitobning chap tomonidagi D d harflarini kuzating. Shundan so'ng harf yuzasidan savol-javob o'tkaziladi: D d harflarining qanday shakllari bor ekan? Siz d harfini nima qildingiz? (Ko'rdik.) Bu harf qaysi tovushni bildiradi? - d tovushini. Siz harfni nima qildingiz? (O'qidik.) Harflarni nima qilar ekansiz? (Ko'ramiz va o'qiymiz.) O'qituvchi o'quvchilarning fikrini umumlashtirib, tovush bilan harf o'rtasidagi farqni yana bir bor eslatib o'tadi. O'quvchilar darslikda berilgan *dala* so'zining tahlilini kuzatadilar va o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari asosida izohlaydilar.

O'quvchilar kesma harflar ichidan D harfini topib, "Harf xaltasi"ga solib qo'yadilar.

6. So'zlar o'qish. Xattaxtaga avvaldan yozib, tayyorlab qo'yilgan so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi. So'ngra o'qituvchining namunasidan so'ng darslikdagi so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi.

7. Bo'g'in o'qish. O'qituvchi harf terish kartonida *da, do, di, du* bo'g'inlarini tuzib ko'rsatadi. Shu bo'g'inlarga bo'g'in qo'shib, so'z hosil qiladilar: *dada, Dono, dutor, divan* kabi.

So'z tuzishda qiynalmasliklari uchun xattaxtaga nomida shu bo'g'inlar ishtirok etadigan narsa rasmlari osib qo'yilishi mumkin.

8. Dam olish daqiqasi.

9. Kesma bo'g'inlardan so'z tuzish va o'qish. Kesma bo'g'inlar aralash holda qo'yiladi, o'quvchilar ulardan so'z tuzadilar va o'qiydilar. Shu so'zlardagi bitta harfni o'zgartirib yangi so'z hosil qilish ham mashq qilinadi. Masalan, *dono — dona, dada — dala.*

10. "So'z top". Darslikdagi "Dor o'yini" rasmi va sinf xonasidagi narsalar orasidan tarkibida d tovushi bo'lgan so'zlarni aytish talab qilinadi (*dor, dorboz, davra, daftar, deraza va h.k.*).

11. Darsda o'rganilgan tovush-harf eslatilib, bajarilgan ishlarga yakun yasaladi.

27- dars. Kichik d harfini yozish.

1. *Don* so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi. Bolalar andazadan d harfining o'rnini korsatib, katak ichini bo'yaydilar. Uning undosh ekanini aytadilar.

2. Qiyoslash. Kichik d harfining bosma va yozma shakli qiyoslanadi.

3. Kichik yozma d harfining grafik tahlili, yozma kichik d harfining ikki unsurdan tuzilgani aytiladi.

4. Dam olish daqiqasi.

5. O'qituvchining namunasi. O'qituvchi xattaxtaga bir nechta d harfini yozib ko'rsatadi va bu harfning yozilish usulini tushuntiradi. Ruchka uchini yozuv yo'lining yuqori chizig'idan bir oz pastga qo'yib, shu chiziqqa tomon chapga

bukib chizasiz va yozuv yo'lining pastki chizig'iga tomon oval shaklida chizib, boshlang'ich nuqta bilan biriktirasiz. Yozishni davom ettirib, katta ilmoq shakli chiziladi.

6. Amaliy mashq. O'quvchilar havoda mashq qilgach, daftarga yozadilar.

7. Bo'g'in va so'zlar yozish. O'qituvchi xattaxtaga *do, da, di, du* bo'g'inlarini yozadi. O'quvchilar bo'g'inlarni o'qiydilar. So'ngra o'qituvchi *don, dala, odam* so'zlarini yozib ko'rsatadi. Yozish jarayonida harflarning bog'lanishi ko'rsatiladi.

8. Dam olish daqiqasi.

9. Dars yakunlanadi.

28- dars. d tovushi va D d harflari (mustahkamlash).

1. Takrorlash. "Kim ko'p so'z topadi?" o'yini o'tkaziladi. Bolalar d tovushli so'zlardan aytadilar. Ular topgan so'zlarning ba'zilari kesma harflar yordamida tuzdiriladi.

Kitobning 20- betidagi so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi va ma'nolari so'raladi.

Kitobning 21- betidagi ot rasmi yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Unda ot haqida qanday hikoyalar eshitganliklari yoki filmlar ko'rganliklari so'raladi.

3. *Duldul* so'zining ma'nosi izohlanadi va so'zning andazasi xattaxtaga chiziladi, tovush tomondan tahlil qilinadi.

4. Gaplarni o'qish. O'qituvchi matnni o'qishdan oldin sarlavha haqida ma'lumot beradi. Matnning asosiy mazmunini aks ettiruvchi so'zlar yoki so'z birikmalari sarlavha deb nomlangaqligini aytib, "Duldul ot" matnini o'qib eshittiradi. Bunda so'roq va darak gaplarning ohangiga rioya qilib o'qishga e'tibor qaratiladi. So'ngra quyidagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Matn nima haqida ekan? (Matn duldul ot haqida ekan.) Matn qanday nomlanibdi? (Matn "Duldul ot" deb nomlanibdi). Demak, matnning sarlavhasi "Duldul ot" ekan. Suhbatdan so'ng o'quvchilar matnni navbatma-navbat o'qiydilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. Didaktik o'yin. Darslikdagi doira rasmi ichida beril-

gan bo'g'inlardan so'zlar tuzdiriladi: *oldin, olam, ona, dala, dadam, oldi, Odil, duldul.* Tuzilgan so'zlardagi d tovush-harfining o'rni so'raladi.

7. Dars d tovush-harfini mustahkamlashga bag'ishlangani aytilib yakunlanadi.

29- dars. Bosh D harfini yozish.

1. Rasm asosida suhbat. Do'ppi rasmi asosida gap tuzadilar: *Dono do'ppi tikdi.* Xattaxtaga bu gapning andazasi chizdiriladi. Andaza asosida gapni o'qish mashq qildiriladi.

2. O'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida xattaxtada kichik d harfi yozdiriladi.

3. Kartondagi bosma va yozma D harflari kuzatiladi. D harfi grafik tahlil qilinadi. 2 unsurdan tuzilganligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi.

4. O'qituvchi xattaxtaga D harfini bir necha marta yozib, qo'l harakati bilan tushuntiradi. O'quvchilar D harfini havoda yozib mashq qiladilar, keyin daftarlariga yozadilar.

5. Boshqa o'quvchilarga namuna sifatida D harfini to'g'ri va chiroyli yozadigan bir-ikki bola xattaxtada yozadi.

6. O'qituvchi xattaxtaga do bo'g'inini yozadi. Bolalarga shu bo'g'inga harf qo'shib, so'z tuzdiradi *(Don).* So'ng *Don* va *Dono* so'zini xattaxtaga yozib, ularning yozilish tartibini, harflarning qo'shilishini tushuntiradi. (Shu o'rinda kesma harflardan *don* so'zi, kesma bo'g'inlardan *Dono* so'zi yozdirilsa, yana bir bor imlo xatolarining oldi olinadi.) O'quvchilar daftarlaridagi *do* bo'g'inini xattaxtadagi namuna asosida *Don* so'zi shaklida yozadilar. Keyingi qatorga *Dono* so'zini namuna asosida yozadilar.

O'qituvchi xattaxtaga *Damin dalada* gapini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar gapni ovoz chiqarib o'qiydilar va daftarlariga yozadilar.

7. "Kim ko'p so'z topadi?" o'yini o'tkaziladi. Bu o'yin qatorlararo musobaqa tarzida o'tkazilishi ham mumkin. G'olib qator rag'batlantiriladi.

8. Dam olish daqiqasi.

9. Mustaqil ish. Xattaxtadagi bosma harflarda yozilgan *Dalada don mo'l* gapi o'quvchilarga 2-3 marta o'qitilib, gapni daftarga yozish mustaqil ish qilib beriladi.

10. Darsda o'rganilganlar eslatilib, dars yakunlanadi.

30- dars. Ng ng tovush-harf birikmasi.

1. Takrorlash. O'qituvchi har bir o'quvchidan tarqatilgan kartochkalardagi gaplarni o'qishni talab qiladi. 3-4 o'quvchi o'qigan gaplarining andazasini xattaxtada chizib ko'rsatadi.

2. O'qituvchi *ng* tovushini talaffuz qilib ko'rsatadi. Bu tovushning talaffuzida olingan havoning bir qismi burun bo'shlig'idan chiqishi, tilning orqa qismi tanglayga tegishi bilan aytilib, ng tovushi bir necha marta talaffuz qilib ko'rsatiladi. O'quvchilar oynaga qarab ovoz chigarib talaffuz qiladilar. O'qituvchi bodring rasmini ko'rsatib, gap tuzishni aytadi. *Dadam bodring ekdilar. Bodring* so'zining andazasi xattaxtaga chizilib, tovush tomondan tahlil qilinadi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. O'qituvchi bosma *ng* harfini ko'rsatadi. Bu harf avval o'rganilgan harflardan farq qilishini, ikki harf birgalikda bir tovushni ifodalashini aytadi.

5. Rasm bilan ishlash. Darslikning 22- betidagi "Nonushta" rasmi asosida hikoya tuzdiladi. Bunda milliy odatlarimizdan biri bo'lgan erta turish, oila a'zolari jamuljamlikda nonushta qilishi haqida fikr yuritiladi.

6. Darslikning chap tomonida berilgan *dadang* so'zining tovush tahlilini kuzatish o'quvchilarga mustaqil ish qilib beriladi.

7. Ustunchadagi so'zlarni o'qish. O'qituvchi o'qish namunasini ko'rsatadi. So'ng o'quvchilar o'qiydilar.

8. Dam olish daqiqasi.

9. Kesma harflar bilan ishlash. Bir o'quvchi xattaxtada, qolgan o'quvchilar o'z joylarida kesma harflar yordamida *otang, oling, dalang* so'zlarini bo'g'inga bo'lib yozadilar va *ng* harfining o'rnini aniqlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarning

javoblarini eshitib, *ng* harf birikmasi so'z boshida kelmasligini aytadi.

10. "Harf tasmasi" ga *ng* harfi yozdirilib, dars yakunlanadi.

31- dars. ng harfli so'zlarni yozish.

1. *Singil* so'zining andazasi chiziladi va talaffuzi mashq qilinadi.

2. O'qituvchining namunasi. O'qituvchi *ng* harfini yozib ko'rsatadi va grafik tahlil qiladi: o'quvchilarga *n* harfining yozilishi eslatilib, so'ng ikkinchi shaklining yozilishi tushuntiriladi. Ruchka uchini yoziv yo'lining yuqori chizig'idan bir oz pastga qo'yib, shu chiziqqa tomon chapga bukib chizib, boshlang'ich nuqta bilan birlashtiriladi. Chiziqlar birlashgan joydan pastiga halqali chiziq chiziladi.

3. Amaliy mashq. O'quvchilar bu harfni yozishni avval havoda mashq qiladilar, so'ng ish daftarlariga yozadilar.

4. So'z yozish va lug'at ishi. O'quvchilar kesma harflar yordamida *tong, otang, onang* so'zlarini yozadilar. So'zlar ning ma'nosi izohlanib, shu so'zlar asosida gaplar tuzdiriladi. O'qituvchi xattaxtaga *tong, otang, onang* so'zlarini yozadi. O'quvchilarning so'zlarni yozishda qo'l harakatlari kuzatib turiladi.

5. ng harfi so'z boshida kelmasligi, shuning uchun uning yozma bosh shakli qo'llanmasligini eslatadi.

6. Qiyoslash: n, m, a, d, ng harflari qiyoslanadi.

7. Hoshiya ustidan chizdiriladi. Dars yakunlanadi.

32- dars. ng tovush-harfini mustahkamlash.

1. Darslikning 22- betida berilgan so'zlar o'qitiladi. O'rganilgan *ng* tovushining talaffuzi, bu tovushning yozuvdagi ifodasi o'quvchilardan so'raladi.

2. So'z andazasi ustida ishlash. Kesma harflar yordamida *tong* so'zi yozdirilib, so'z andazasi xattaxtaga chizdiriladi. So'z tovush tomondan tahlil qilingach, andazadagi katakchalarga harflar qo'yiladi Bunda tovush va harflar soni

teng emasligi, ng tovushi harflar birikmasi orqali ifodalanishiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Rasm ustida ishlash. Darslikning 23- betida berilgan rasm asosida hikoya tuzdiriladi. *Oila a'zolari, ahillik, dasturxon atrofida* kabi so'z va so'z birikmalarining ma'nolari izohlanadi.

5. O'qituvchi "Tongda" matnini o'qib eshittiradi. So'ngra navbatma-navbat o'quvchilar o'qiydilar.

6. Dam olish daqiqasi.

7. Didaktik o'yin. O'qituvchi *bod-ring, shud-ring* so'zlarini talaffuz qilib, bir xil bo'g'inlarni aniqlashni so'raydi. Xuddi shu tartibdagi ish darslikda berilgan so'zlar asosida ham uyushtiriladi.

8. Darsda o'rganilganlar umumlashtirilib, dars yakunlanadi.

33- dars. ng tovush-harfini mustahkamlash.

1. O'qituvchi xattaxtada *min—ming, don—dong* so'zlarini yozib, ma'nosini izohlaydi. O'quvchilar bu so'zlarni tovush tomondan tahlil qiladilar.

2. Amaliy mashq. O'quvchilar yuqoridagi so'zlarni daftarlariga yozib oladilar.

3. Gap yozish. O'qituvchi ko'rgazmaga bosma harflar bilan yozilgan quyidagi gapni bolalarga aytadi: *Onamning nomi* — Adiba. O'quvchilar bu gapni 2-3 marta o'qiganlaridan so'ng daftarlariga yozma harflar bilan yozadilar.

4. Eshitib yozish. O'quvchi *in, til, dono* so'zlarini aytib turadi, o'quvchilar yozadilar.

5. "Ish daftari" dagi nuqtalar bilan berilgan shakl chizdiriladi, dars yakunlanadi.

34- dars. k tovushi va K k harflari.

1. O'quvchilar bilimini mustahkamlash. "Harflar tasmasi" dagi unli va undosh harflar o'qitiladi. Unli harflar (a, o, u, i) bir o'quvchiga, undosh harflar (n, l, t, m, d, ng) bir o'quvchiga o'qitiladi. D tovush-harfi yuzasidan o'quvchilar hosil qilgan bilimlar savollar yordamida aniqlanib mustahkamlanadi.

2. So'zdan *k* tovushini ajratish. 24- betning yuqori qismida berilgan *ikki* so'zi andaza asosida tovush jihatdan tahlil qilinadi. Shu so'zning andazasi xattaxtaga chizdiriladi. Bo'g'inlar soni aniqlatiladi. Andaza katakchalariga o'rganilgan harflar aniqlab yozdiriladi.

O'quvchilardan so'zni aytib ko'rib, qaysi tovushning o'rni bo'sh qolganini aniqlashlari talab qilinadi. O'quvchilar k tovushining o'rni bo'sh qolganini aytadilar. Bugungi o'rganadigan tovush k ekani e'lon qilinadi. Tahlilda asosiy diqqat k tovushi talaffuzidagi og'iz harakatini amaliy ko'rsatib, olingan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashi, bu tovush undosh ekanligi aytiladi. O'quvchilardan undosh tovushlarning andazasini qanday belgilash va andazada shu tovushning o'rnini ko'rsatishlari talab qilinadi.

3. k tovushini farqlash. O'qituvchi bir nechta so'z (*kalit, kitob, ruchka, kaklik, tok* kabi) aytadi. k tovushi ishtirok etgan so'z aytilganda o'quvchilar qo'llarini ko'tarib, k tovushi so'zning qayerida (boshida, o'rtasida, oxirida) eshitilayotganini aytadilar. O'quvchilarga ham k tovushli so'zlar toptiriladi. So'z topishda qiynalsalar, sabzavotlardan o'ylang (kartoshka, karam), meva nomlaridan o'ylang (nok, o'rik) tarzida yo'llanma beriladi.

4. K k harflarini tanitish. K k harflarini tanitish tartibi oldingi darslardagi kabi amalga oshiriladi.

5. Bo'g'in tuzish. O'quvchilar navbatma-navbat xattaxtaga chiqib, bo'g'in jadvalini tuzadilar: *ko, ka, ki, ku.* Shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar tuzdiriladi: *kosib, kamalak, kitob, kakku.*

6. Dam olish daqiqasi.

7. Ustunchalardagi so'zlarni o'qish. Bosma harflar bilan ustunchadagi so'zlar xattaxtaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi so'zlarni o'qiydi va o'quvchilarga ham shu tartibda o'qitadi.

"Kun va tun" o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi uka so'zini alohida yozib, bolalarga so'zni ko'rib olib, ko'zingizni yuming, deydi va u harfini a bilan almashtirib, endi ko'zingizni oching, so'zda qanday o'zgarish bo'lganini ayting, deydi. Bolalar u harfi a harfi bilan almashtirilganligi,

natijada so'z ma'nosi o'zgarganini aytadilar. Bu o'yin 1-2 marta o'tkazilgach, so'zlarning soni ko'paytirilishi, murakkablashtirilishi mumkin.

8. Dam olish daqiqasi.

9. Darslikning 24- betida berilgan *ukki, kurka, kapalak* rasmlari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Bu so'zlar tovush tomondan tahlil qilinadi.

10. O'quvchilarga darsda bajargan vazifalari ayttirilib, „Harf tasmasi"ga bosma k harfi yozdiriladi. k tovushi yuzasidan o'quvchilarning bilimini aniqlash va mustahkamlash maqsadida quyidagicha savol-javob o'tkaziladi.

O'qituvchi. — Bu darsda qaysi tovush bilan tanishdingiz?

O'quvchi. — k tovushi bilan tanishdik.

O'qituvchi. — k tovushi qanday tovush?

O'quvchi. — k tovushi—undosh tovush.

O'qituvchi. — Nima uchun?

O'quvchi. — Havo og'izda to'siqqa uchrab chiqadi.

O'qituvchi. — Undosh tovushni andazada qaysi rangda ko'rsatasiz?

O'quvchi. — Undosh tovushni andazada ko'k rangda ko'rsatamiz.

O'qituvchi: To'g'ri javob berdingiz, k tovushi undosh tovush. Uning talaffuzida olingan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab chiqadi. Shuning uchun k tovushini cho'zib aytib bo'lmaydi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, dars yakunlanadi.

35- dars. Kichik k harfini yozish.

1. O'quvchilar "Kaklik" so'zini tovush tomonidan tahlil qiladilar.

2. O'qituvchining namunasi.

Kichik k harfini yozish uchun tepasi halqali katta chiziq chiziladi. Chiziq tugagan joydan qo'l uzmay asosiy chiziqqa tomon chiziladi. So'ngra yoy shakli chizilib, ikki tomoni ilmoqli unsur bilan tugallanadi.

3. Bo'g'in va so'zlar yozish. Kesma harflar yordamida

ko, ka, ki, ku bo'g'inlari yozdiriladi. O'qituvchi bu bo'g'inlarni xattaxtada yozib ko'rsatadi. Shu bo'g'inlarga harf qo'shish bilan so'z hosil qilish aytiladi: kon, kam, kim, kun. O'qituvchi so'zlarning ma'nolarini izohlab, xattaxtaga *kaklik* so'zini yozadi. O'quvchilardan so'zni o'qish va grafik tahlil qilish talab qilinadi.

4. O'quvchilar daftarlariga ko, ka, ki, ku bo'g'inlarini va *kaklik* so'zini yozadilar.

5. Rasmli diktant.

O'quvchi narsa rasmlarini (olma, ot, non, kalit) ko'rsatadi. Bolalar o'qituvchining topshirig'iga binoan narsalar nomini aytib, so'zlarni bo'g'inga ajratadilar va daftarlariga yozadilar.

6. Gul rasmi ustidan chizdirilib, uni bo'yash bilan dars yakunlanadi.

36- dars. k tovushi va K k harflari (mustahkamlash).

1. Takrorlash. Xattaxtaga k harfi yoziladi, o'quvchilarga bittadan harf qo'shib bo'g'in hosil qilish aytiladi. Bolalar kesma harflaridan k ni olib, yoniga a, o, u, i unli harflarini qo'yadilar. Kim k harfi yoniga undosh harflardan qo'ysa, ularga unli tovushgina bo'g'in hosil qilishi eslatiladi.

O'quvchilarga tuzgan bo'g'inlari yoniga kesma bo'g'inlardan qo'shib, so'z tuzish topshirig'i beriladi. Bolalar tuzgan so'zlaridan bitta kim? so'rog'iga *(Kamol)*, bitta nima? so'rog'iga *(kamon)* javob bo'lgan so'z tanlab olinib, tovush jihatdan tahlil qilinadi.

2. So'zlarni o'qish. O'qituvchi xattaxta pardasini chetga suradi. Oldindan bosma harflar bilan yozilgan quyidagi so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi.

Kim?	nima?
Ko-mil	kak-ku
Ka-mol	kak-lik
Ma-li-ka	ka-mon

Bu so'zlarni kamaytirish va ko'paytirish o'qituvchilarning

xohishiga bog'liq. Ular ichidagi ba'zi so'zlar kesma harflar yordamida tuzilishi mumkin. Asosiy diqqat so'zlarning o'qilish usuliga qaratiladi. So'ng o'quvchilar kitoblaridagi so'zlarni o'qiydilar.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Mantiqiy mashq. Yuqoridagi so'zlarni o'qish jarayonida o'quvchilar nigohi kim? va nima? so'rog'iga tushadi. Shularni nazarda tutib o'quvchilarga kishilarga nisbatan kim?, boshqa narsalarga nima? so'rog'i berilishi tushuntiriladi. Tushuntirishda sinfda qo'llanilgan gap va birikmalardan (Bu kitob kimniki? Bu nima? (daftar, ruchka, qalam, eshik) foydalanish lozim.

5. Rasm asosida hikoya tuzish. Darslikning 25- betidagi "Ahil aka-ukalar" rasmi asosida hikoya tuzdiriladi. Hikoya yakunida 2-3 o'quvchidan aka yoki ukalari borligi, ularga munosabatlari so'ralib, o'quvchilarning hikoyalari umumlashtiriladi.

6. So'zlar va matnni o'qish. O'qituvchi ustunchada berilgan so'zlarni va "Aka-uka" matnini o'qib beradi. So'ngra bir necha o'quvchiga o'qitadi.

7. O'qituvchi kim?, nima? so'roqlari haqidagi suhbatni davom ettirib, darslikdagi kuchukcha va mushuk rasmi yuzasidan suhbat o'tkazadi. Kuchukcha va mushuk so'zlari tovush tomondan tahlil qilinadi.

37- dars. Katta K harfini yozish.

1. Xattaxtaga oldindan yozma harflar bilan yozib qo'yilgan "Ukki, kakku, kaklik — nima?" gapi o'qitiladi.

2. K harfining bosma va yozma shakllari qiyoslanadi.

3. O'qituvchining namunasi.

4. Amaliy mashq. O'quvchilar 2 qator katta K harfini yozadilar.

5. O'qituvchi so'roq belgisining qo'yilishini tushuntiradi. Bu belgini yozish uchun asosiy chiziqlar o'rtasidan tepasi ilgakli chiziq chizilib, pastki chiziqqa ozgina yetkazmay to'xtatiladi. Chiziq to'xtagan joyning pastiga, chiziq ostiga nuqta qo'yiladi.

6. Mustaqil ish. O'quvchilar „Yozuv daftari"dagi gapni o'qib, namunaga qarab yozadilar.

7. So'zlar yozish va lug'at ishi. O'quvchilar diqqatiga quyidagi so'zlar havola qilinib o'qitiladi: *koinot, kamalak.*

8. Daftar hoshiyasidagi shakllar chizdiriladi. Bugungi darsda katta k harfini, so'zlar va gaplar yozish va o'qishni o'rganganliklari aytilib, dars yakunlanadi.

38- dars. o' tovushi va O' o' harflari.

1. O'quvchilar bilimini mustahkamlash. O'qituvchi xattaxtaga andaza chizadi.

O'quvchilar andazaga mos so'z o'ylab topadilar. To'g'ri aytilgan so'zlardagi o'rganilgan harflar andazaga yoziladi. (ari, olma).

Andazaga qo'yilgan harflar va so'z o'qitiladi.

2. Dam olish daqiqasi.

3. So'zdan o' tovushini ajratib olish. O'quvchilar diqqati osib qo'yilgan rasmga jalb qilinadi. *O'rik* so'zining necha bo'g'in va tovushdan tuzilganligi aniqlanib, xattaxtaga andazasi chizdiriladi. O'quvchilar andaza va rasmga qarab *o'rik* so'zini aytadilar. O'qituvchi shu so'zni *o'o'o'rik* tarzida talaffuz qiladi va o'quvchilardan qaysi tovush cho'zib talaffuz qilinayotganini so'raydi. O'quvchilar ham cho'zib o'-o'-o' deydilar. O' tovushi birgalikda va yakka tartibda talaffuz etiladi. O' tovushi cho'zib talaffuz etilishi bilan uning unli ekanligini, unli tovush bo'g'in hosil qilishini bolalar aytadilar. O'quvchilarning tushunchasi quyidagi kabi savollar yordamida aniqlashtiriladi: Qanday tovushlarni cho'zib aytish mumkin? Unli tovushlar nima hosil qiladi? (Bo'g'in).

O'qituvchi o'quvchilarning fikrini umumlashtirib, bugun o' tovushi bilan tanishganliklarini aytadi. O' tovushiga xos xususiyatlarni gapirib beradi: O' tovushini qancha cho'zib aytsak ham, o' deb aytilaveradi. Uning talaffuzida olingan havo to'siqqa uchramay chiqadi. Bunday hosil bo'ladigan tovushlar unli tovush bo'lishini bilasiz. Demak, o' ham unli tovush ekan, o' tovushini aytganimizda lablarimiz biroz

oldinga cho'zilib, labimiz dumaloq shaklga kiradi. Qani, siz ham oynachalaringizga qarab aytib ko'ring-chi? (Bolalar o' tovushini aytib, oynachalariga qarab lablarning va og'izning holatini kuzatadilar.) Unlilar nima hosil qilar edi? Unlilar bo'g'in hosil qiladi.

4. O' tovushini farqlash. O'qituvchi o' tovushli bir necha so'z aytadi. Masalan, *o't, o'roq, o'rdak, to'ti, jo'ja* va hokazo. O'quvchilar 'o' tovushini eshitganlarida chapak chaladilar.

5. Dam olish daqiqasi.

6. O', o' harflarini tanitish. O'quvchilar kitob varag'ining yuqori qismidagi O', o' harflarini kuzatadilar. O harfining qaysi harfga o'xshashligi so'raladi, so'ng O' o' harflarining shaklidagi farqi so'raladi.

O'qituvchi sinf "Harf xaltasi" dan, o'quvchilar esa o'zlarining harf xaltasiga o' harfini qo'yadilar.

7. O'qish mashqlari. O'qituvchi bosma harflar bilan xattaxtaga bo'g'inlarni yozadi. Shu bo'g'inlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitilgach, ularga *mo'* bo'g'iniga bo'g'in qo'shib so'z hosil qilish topshirig'i beriladi: *Mo'tabar, mo'ri, Mo'min.*

8. Ustunchalarda berilgan so'zlar oldindan xattaxtaga yozib qo'yiladi. O'qituvchining namunasidan so'ng o'quvchilar o'qiydilar.

9. Dam olish daqiqasi.

10. Mantiqiy mashq. O'rdak—parranda. Parrandalarga yana nimalar kiradi? Hamma parrandalar ham suvda suzadimi? O'ktamning o'rdakchasi nima uchun suvda suzmayapti? Parrandalar qushlardan nimasi bilan farq qiladi? kabi savollar yordamida mantiqiy mashq o'tkaziladi.

11. Dars yakunida didaktik mashq o'tkaziladi. O'quvchilar *o'n* so'zidagi 1- harfni olib tashlab, uning o'rniga i harfini qo'yib o'qiydilar. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nosini aytadilar.

39- dars. Kichik o' harfini yozish.

1. O'quvchilardan xattaxtaga yoki ko'rgazmaga yozilgan

quyidagi gaplarni o'qish va harflarini topish so'raladi: *Odil otni mindi. Ilm — kop. Alim, Olim — aka-uka.*

2. Rasm asosida gap tuzib, undan o'rdak so'zi ajratib olinadi. So'z tovush tomonidan tahlil qilinadi.

3. Bosma va yozma o' harflari qiyoslanadi va bu harflar qaysi harf bilan o'xshashligi eslatiladi.

4. O'qituvchi o' harfini yozib ko'rsatadi.

5. Amaliy mashq. O'quvchilar daftarlariga o' harfini yozadilar.

6. So'z yozish va lug'at ishi. Xattaxtaga o't, o'lka, ko'm-ko'k so'zlari yoziladi. So'zlarning ma'nosi izohlanadi, gaplar tuzdiriladi. O'quvchilar so'zlarni daftarlariga yozadilar.

7. Eshituv diktanti: a, o, i, o' harflari diktovka bilan yozdiriladi.

8. O'quvchilardan qaysi harfni yozishni o'rganganliklari so'ralib, ularning fikri umumlashtirilib, dars yakunlanadi.

40- dars. O' o' harflarini mustahkamlash.

1. O'quvchilar bilimini mustahkamlash. O'qituvchi talabi bilan o'quvchilar o'rganilgan harflarni harf xaltalaridan olib ko'rsatadilar. Shu harf bilan boshlanadigan bir-ikkita so'z aytadilar.

2. *Mo'min, ana, Ali, mana* so'zlari kesma bo'g'inlar bilan ham tuzdiriladi.

3. Dam olish daqiqasi.

4. Rasm asosida hikoya tuzish. "Ko'lda" rasmi asosida tarbiyaviy qimmatga ega bo'lgan hikoya tuzdiriladi. O'qituvchi kesma harflardan *mu, mi, ma* bo'g'inlarini tuzdirib, shu bo'g'inlar ishtirokida so'zlar hosil qilishni topshiradi.

5. Gap tahlili. Hikoyadan *„Ko'lda o'rdaklar suzmoqda"* gapi ajratib olinib, tahlil qilinadi.

6. Tahliliy-tarkibiy mashq. O'qituvchi o'quvchilar diqqatiga *ko'l—kul, to'n — tun* so'zlarini havola qilib, qaysi tovush o'zgargani, so'zlarning ma'nosi yuzasidan suhbat o'tkazadi.

7. O'tilganlar savol-javob orqali eslatilib, dars yakunlanadi.

41- dars. Katta O‘ harfini yozish.

1. Takrorlash. *O‘ktam* so‘zi kesma harflar yordamida yozdirilib, tovush tomondan tahlil qilinadi. Nima uchun bosh O‘ harfi bilan yozilishi so‘raladi.

2. O‘qituvchining namunasi. O‘qituvchi xattaxtaga bosh O‘ harfini yozib ko‘rsatadi.

3. Amaliy mashq. O‘quvchilar havoda mashq qiladilar va „Yozuv daftar“lariga yozadilar.

4. Gap yozish. O‘qituvchi xattaxtaga *O‘ktam ot mindi* gapini yozadi. Bunda bosh O‘ harfining boshqa harflar bilan ulanishida yordamchi chiziqdan foydalanishga e’tibor qaratiladi.

5. O‘qishni mashq qilish. O‘qituvchi xattaxtaga yoki kartonga yozilgan quyidagi gaplarni havola qiladi va o‘qitadi:
. Mana ko‘m-ko‘k dala. Dalada don mo‘l.

6. Izohli yozuv. O‘quvchilar gaplarni izohlab yozadilar.

Xat-savod o'rgatish dasturi materiallarining o'quv soatlariga taxminiy taqsimoti[1].

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Dars-lik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
		Tayyorgarlik davri			
1.	Darslik bilan tanishtirish	1- Sentabr — Mustaqillik bayrami. Ona yurtim — oltin beshigim. (Maqol)	2- bet	Bayroqcha chizing	dars, sinf, muqova
2.	Og'zaki va yozma nutq. Gap haqida amaliy tushuncha	"Jonajon maktabim" Maktab — bilim makoni. (Maqol)	3- bet	kichik va katta tayoqchalar chizing	o'quvchi, o'qituvchi, ustoz, parta
3.	Nutq va gap haqidagi tushunchalarni mustahkamlash.	"Bizning sinf", "Bilim—aql chirog'i". (Maqol)	4- bet		nuqta, rioya qilmoq, masofa
4.	So' z haqida tushuncha	"Orasta bo'l", "Kitob do'konida" o'yini.	5- bet		reja, saranjom-sarishta, pokiza
5.	Bo'g'in va tovush haqida tushuncha	"Bog'da". "Agar men sehrgar bo' lsam" o'yini.	6- bet		ishkom, novda, buta
6.	Bo'g'in va tovush haqidagi tushunchalarni mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish	"Sabzavot dalasi".	7- bet		paykal, yagana
7.	O'tilganlarni mustahkamlash	Alifbo davri.			

[1] Odatda o'qish darslaridan so'ng yozuv darsi bo'ladi. Rejalashtirishda o'qish darslari tartibini ko'rsatuvchi raqamlar berildi. Yozuv darslari raqami berilmadi. Bu raqamlarni o'qituvchilar ish jarayonida qo'yib boradilar.

Davomi

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Dars-lik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
		Alifbo davri.			
1.	o, t tovushlari va o, O t, T harflari.	"Baxtiyor bolalik" o, t tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish.	8- bet	Kichik o, t harfi. Katta O, T harflari	keksa, quvnoq
3.	o, t tovushlari va o, O, t, T harflarini mustahkamlash				
	a tovushi va a A harflari			kichik a harfi	ozod, shod, ahil
5.	a tovushi va a A harflarini mustahkamlash			katta A harfi	do'st, ustoz
6.	n tovushi va n N harflari	"Non aziz".	10- bet	Kichik n harfi	narvon, ninachi, novvoy
8.	n tovushi va n N harflarini mustahkamlash.	„Ko'chamizda to'y" suhbati.	11- bet	Katta N harfi	nay, surnay, karnay
10.	i tovushi va i I harfi. Sinfdan tashqari o'qish.	"Tabiatni e'zozlayli". "Kim o'qiy oladi", o'yini. Bo'g'inlar aralash beriladi. O'quvchilar so'z hosil qiladilar.	12- bet	Kichik i harfi	e'zozlamoq, in, uya
12.	i va I harflarini mustahkamlash	"Qushlar bizning do'stimiz".	13- bet	Katta I harfi	pushaymon bo'lmoq, yarador, palapon
14.	l va L tovushi va harflari	"Laylak keldi". "Soz top" o'yini.	14- bet	Kichik l hatfi	mehr, beshik, g'a mxo'r
16.	l tovushi va l L harflarini mustahkamlash	"Onajonim" Ona bilan bola — gul bilan lola. (Maqol)	15- bet	Katta L harfi	laylak, qanot, tumshuq
18.	m tovushi va m M harflari	m tovushi va m harflarini topish.	16- bet	Kichik m harfi	minora, mezana, kamon

Davomi

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Dars-lik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
20.	m tovushi va m M harflarini mustahkamlash	"Mergan bobo." "So'zlar zanjiri" o'yini.	17- bet	Katta M harfi	marjon, malla, tugma-cha
22.	u tovushi va u U harflari. Sinfdan tashqari o'qish.	"Tokzor" Kesma harflar yordamida so'zlar yozing.	18- bet	Kichik u harfi	unli, uzumzor
24.	u tovushi va u U harflarini mustahkamlash	"Tulki bolalari". u harfi ishtirokida so'zlar topish.	21- bet	Katta U harfi	ukki, burgut
26.	d tovushi va d D harflari	"Dor o'yini" "Do'ppi kimda" o'yini.	25- bet	Kichik d harfi	don, bug'doy, arpa
28.	d tovushi va d D harflarini mustahkamlash.	"Duldul ot".	25- bet	Katta D harfi	Daraxt, payvand
30.	ng tovushi va ng Ng harflari	"Nonushta", "So'z top" o'yini.	28- bet	Kichik ng harfi	shudring, singling, teng
32.	ng tovushi va ng Ng harflarini mustahkamlash	Ota-onang — davla-ting. (Maqol.) "Tongda".	29- bet	Ng harfi	zang, chang
34.	k tovushi va k K harflari	Qushlar bizning do'stimiz "Uchdi-uchdi" o'yini.	26- bet	Kichik k harfi	kakku, kaklik, kabutar
36.	k tovushi va k K harflarini mustah-kamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	"Bizning oila", "Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l". (Maqol.)	27- bet	Katta K harfi	Kamtar, koinot, izzat qilmoq
38.	o' tovushi va o' O' harflari	"Nomini top".	29- bet	Kichik e harfi	o'lka ko'm-ko'k, ko'k
40.	o' tovushi va o' O'harflarini mus-tahkamlash	"Ko'lda". Kesma harflar yordamida so'zlar yozish.	30- bet	Katta O' harfi	o'tkir o'rmala-moq
42.	e tovushi va e E harflari	"Echki va tipratikan". "Echki bolalari" ertagini sahnalashtirish.	31- bet	Kichik o' harfi	ertalab, erinchoq, erkatoy
44.	e tovushi va e E harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	"Telefon" o'yini.	32- bet	Katta E harfi	keng, yelkan

Davomi

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Dars-lik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
46.	b tovushi va b B harflari	"Topag'on bolalar", "Sehrli uycha" o'yini	33- bet	Kichik b harfi	bilag'on, bardoshli ba'zida
48.	b tovushi va b B harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	"Bekinmachoq" o'yini. "Harfni top" o'yini.	34- bet	Katta B harfi	boshqotirma, baland, boshchi
50.	y tovushi va y Y harflari	"Oy", Tez aytish.	35- bet	Kichik y harfi	yil, yo'lbars, yo'lka
52.	y tovushi va y Y harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	"Ehtiyot bo'ling", "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini.	36- bet	Katta Y harfi	Yig'moq, yirik-yirik
54.	r tovushi va r R harflari	Yaxshi ko'rsatish "Yaxshi dam— o' qishga hamdam". (Maqol.)	37- bet	Kichik r harfi	multfilm, radio, raqobat
56.	r tovushi va r R harflarini mustahkamlash.	„Biz multfilmlarni sevamiz".	38- bet	Katta R harfi	robot, rasm, raketa
58.	Q tovushi va q Q harflari	"Qo'zichog'im", "Ovchi va g'ozlar" o'yini	39- bet	Kichik q harfi	qattiq qo'ng'iroq qashqa
60.	Q tovushi va q Q harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.		41- bet	Katta Q harfi	qoida, qavat, qidirmoq
62.	s tovushi va s S harflari	"Bular nimalar?" Tez aytish. Odobli bolalar.	43- bet	Kichik s harfi	sahifa, sayohat, savodli
64.	s tovushi va s S harflarini mustahkamlash.	Odobli bolalar. Odobli bola — elga manzur. (Maqol.)		Katta S harfi	Samarqand, sizlamoq, sirk
66.	z tovushi va z Z harflari	"Kichkina yordamchi". Kesma harflar yordamida bir xil bo'g'inli so'zlar yozish	44- bet	Kichik z harfi	zehn, zarar,
68.	z tovushi va z Z harflarini mustahkamlash.	"Bobolar nasihati", "Men nima olmoqchiman?" o'yini	45- bet	Katta Z harfi	zirapcha, ziyrak

Davomi

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Dars-lik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
70.	v tovushi va v V harflari	"Mening Vatanim".	46- bet	Kichik v harfi	vazifa, va'da,
72.	v tovushi va v V harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	Topishmoqlar, "Quvnoq bolalar", "Kim topa oladi?" o'yini.	47- bet	Katta V harfi	Vertalyot, viloyat, voqea
74.	g tovushi va g G harflari	„Qanday gul nomlarini bilasiz?" o'yini.	48- bet	Kichik g harfi	gavda, guldasta, galma-gal.
76.	g tovushi va g G harflarini mustahkamlash	"Bolalar va gullar". Tez aytishlar.	49- bet	Katta G harfi	Guliston, gazeta
78.	g' tovushi va g' G' harflari	„Bular nimalar?" „Tulki va g'ozlar" o'yini.	50- bet	Kichik g' harfi	g'altak, g'aram, g'uv-g'uv
80.	g' tovushi va g' G' harflarini mustahkamlash	"Bolalar va g'ozlar" Tez aytish.	51- bet.	Katta G' harfi	G'azalkent, g'o'zapoya g'alaba
82.	p tovushi va p P harflari.	"Ma'nosini bilasizmi?" o'yini.		Kichik p harfi	pilla, pazanda, parhez
84.	p tovushi va p P harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	„Dastyor qiz", "So'z top" o'yini.	52- bet.	Katta P harfi	paxtakor, patir, piyola
86.	sh tovushi va sh Sh harflari.	"Hafta kunlari." "Vaqting ketdi— baxting ketdi". (Maqol.)	53- bet.	Kichik sh harfi	shodlik, shoir, sharshara
88.	sh tovushi va sh Sh harflarini mustahkamlash.	Alisher Navoiy, "Oz-oz o'rganib dono bo'lur". (Maqol.)	54- bet.	Katta Sh harfi	shoir, shogird
90.	f harfi va f F harflari.	"Bobo va nabira".	55- bet	Kichik f harfi	foyda, fasl, fan
92.	f harfi va f F harflarini mustahkamlash.	Abdulla Avloniy. „Ilmoq" o'yini.	56- bet.	Katta F harfi	farzand, fikr, Farg'o-na, fut-bol

Davomi

Dars-lar	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzulari, didaktik o'yin va mashqlar	Darslik sahifasi	Yozuv darslari mavzusi	Lug'at
94.	ch tovushi va ch Ch harflari	"O'lkamizda qish", "Bu nima?" o'yini. Bolalar maydonchasida. Chevar qizlar.	57- bet	Kichik ch harfi	chana, choynak, cho'pon
96.	ch tovushi va ch Ch harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	Ch tovushi ishtirokida so'zlar topish.	58- bet	Katta Ch harfi	Chirchiq, chegara, chum-chuq
98.	j tovushi va j J harflari	"Yulduzlar" Tez aytish.	59- bet	Kichik j harfi	jumboq, jo'yak, munajjim
100.	j tovushi va j J harflarini mustahkamlash.	Munajjim bobo. „So'z toping" o'yini.	60- bet	Katta J harfi	jurnal, jadval
102.	h tovushi va h H harflari	"Kitobsevar bolalar" Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni. (Maqol.)	61- bet	Kichik h harfi	hunar, sahifa
104	h tovushi va h H harflarini mustahkamlash	"Topqir qizlar".		Katta H harfi	himoya, handalak
106.	x tovushi va x X harflari	"A'lochi qiz", "Sayohat" o'yini.		Kichik x harfi	xabar, xarita,
108.	x tovushi va x X harflarini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	„Xat ".		Katta X harfi	Xiva, Xorazm, xato
110.	'–tutuq belgisi	"Ta'tilda", "Ma'nosini bilasizmi?"		Tutuq belgisini mustah-kamlash	Ta'til, e'lon, ma'no
112.	(') tutuq belgisini mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish.	"Bobom nasihatlari",		Alifboni yozing	va'da, jur'at, A'zam
114.	„Alifbe" bayrami	Alifbe bayramini (ertaligini) o'tkazish.		Matnlar yozish	main, savodxon
116.	O'rganilganlarni takrorlash			Matnlar yozish	

MUNDARIJA

Muqaddima 3
Xat-savod o'rgatish davri 6
Bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish 14
So'zlarni o'qishga o'rgatish 16
Gap va matnlarni o'qishga o'rgatish 20
O'quvchilarni yozuvga o'rgatish 21
O'qish va yozuvga o'rgatish darslari ishlanmalari 23
Xat-savod o'rgatish dasturi materiallarining o'quv soatlariga taxminiy taqsimoti 63

Qumri Abdullayeva, Karim Nazarov,
Sharofat Yo'ldosheva

SAVOD O'RGATISH METODIKASI
(1- sinf uchun)

Toshkent "O'qituvchi" 1996

Muharrir *H. Yusupova*
Badiiy muharrir *E. Nurmonov*
Texn. muharrir *S. Tursunova*
Musahhih *G. Nasriddinova*

IB № 6989

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 15.04.96. Bichimi 84x108/32. Tip qog'ozi. Kegli 10 shponli. Yuqori bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 4,20. Shartli kr.-ott. 4,41. Nashr. t. 3,2. 50000 nusxada bosildi. Buyurtma № 638.

"O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30. Shartnoma № 13-196-95.

Original-maket "O'qituvchi" nashriyotining kompyuter bo'limida texnikaviy va dasturiy vositalar asosida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi huzuridagi Toshkent tezkor bosmaxonasi. Toshkent, Radial tor ko'chasi, 10. 1996.

A 15

Abdullayeva Q. va boshqalar.

Savod o'rgatish metodikasi (1- sinf uchun). Lotin alifbosida. Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo'ldosheva. —T.;O'qituvchi, 1996.— 80 b.

1.1,2 Avtordosh.

BBK 74.261.4

115

„O'qituvchi"